

# YANGI O‘ZBEKISTON

Ijtimoiy-siyosiy gazeta

№ 56 (1655), 2026-yil 24-mart, seshanba



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz\_official



yuz.uz\_news



yuz.uz\_news



## EKOLOGIYA SOHASIDAGI USTUVOR LOYIHALAR ATROF-MUHIT MUHOFAZASI BO‘YICHA BARQARORLIKNI TA‘MINLASHDA MUHIM AHAMIYATGA EGA

Prezident Shavkat Mirziyoyev 23-mart kuni ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida 2026-2030-yillarga mo‘ljallangan ustuvor umummilliy loyihalar yuzasidan taqdimot bilan tanishdi.

Atmosfera havosining sifatini yaxshilash, shahar va hududlarda yashil maydonlarni kengaytirish, ekologik ta‘lim va madaniyatni yuksaltirish, shuningdek, cho‘llanishga qarshi kurashning ilmiy va amaliy asoslarini mustahkamlashga qaratilgan tashabbuslar ko‘rib chiqildi.

Avvalo, “Toza havo” umummilliy loyihasi doirasida rejalashtirilgan ishlar haqida axborot berildi.

Qayd etilganidek, bugungi kunda Toshkent shahrida havoning ifloslanish darajasi belgilangan me‘yordan yuqori bo‘lishi holatlarini kuzatilmog‘da. Bu Navoiy, Farg‘ona, Chirchiq va Termiz shaharlarida ham qayd etilmog‘da. Havo ifloslanishining asosiy omillari sifatida sanoatning o‘shishi, uglerod yoqilg‘ilaridan keng foydalanish, transport vositalari sonining ko‘payishi, tabiiy omillar va nazoratning yetarli emasligi ko‘rsatib o‘tiladi.

Shu munosabat bilan 2030-yilga qadar atmosferaga chiqarilayotgan ifloslantiruvchi moddalar hajmini kamaytirish hamda PM<sub>2,5</sub> bo‘yicha me‘yordan oshish kuzatiladigan kunlar sonini pasaytirish asosiy maqsadlar etib belgilangan.

Amalga oshirilgan tezkor choralar natijasida Toshkent shahrida havo sifati muayyan darajada yaxshilangan. Jumladan, 2026-yil yanvar-fevral oylarida PM<sub>2,5</sub> konsentratsiyasi o‘tgan yilning shu davriga nisbatan sezilarli pasaygan. Endi bu yo‘nalishda hududiy dasturlar bosqichma-bosqich qabul qilinib, har bir viloyatda tahlil va diagnostika, yagona havo monitoringi hamda ifloslanish manbalarini inventarizatsiya qilish ishlari tashkil etiladi.

“Toza havo” loyihasida energetika va sanoat tarmoqlariga alohida e‘tibor qaratilgan. Mahsulotning ma‘lum qismini muqobil energiya hisobiga ishlab chiqaradigan korxonalar soliq imtiyozlari va moliyaviy rag‘batlar berish, avtomatik monitoring stansiyalari, filtrlar, chang-gaz tozalash hamda energiya samarador

uskunalarni keng joriy etish ko‘zda tutilgan. Toshkent shahri va unga tutash hududlardagi sanoat korxonalarida majburiy avtomatik monitoring postlari o‘rnatilib, ularning ma‘lumotlari yagona geoaxborot tizimiga integratsiya qilinadi. Bunday talablarga amal qilmagan subyektlar uchun kompensatsiya to‘lovlari keskin oshiriladi.

Qurilish sohasida ham ekologik talablar kuchaytiriladi. Yangi quriladigan yirik obyektlarni loyihalashtirishda ko‘kalamzorlashtirish darajasini oshirish, qurilish materiallarini yopiq sharoitda saqlash, chiqindilarni maxsus quvur va konteynerlar orqali tushirish, maydonlarni himoya to‘siqlari bilan o‘rash, onlayn kuzatuv kameralarini o‘rnatish kabi talablar belgilanmog‘da.

Shuningdek, “shamol yo‘laklari”ni saqlash, ekologik ekspertsiza xulosasini qurilish jarayonlarida majburiy hisobga olish, shaharning ekologik va suv resurslarini boshqarish bo‘yicha master-reja ishlab chiqish taklif etildi.

Tabiiy chang omillarini kamaytirish bo‘yicha ham aniq choralar belgilangan. Toshkent shahri atrofida “yashil belbog‘” barpo etish, Surxondaryo va Sirdaryoda chang bo‘ronlarining oldini olish uchun “yashil devor”lar tashkil qilish, sun‘iy ko‘llar hamda suv havzalarini barpo etish, poytaxt tumanlarida favvoralarining sonini ko‘paytirish, barglarni kompost va mulcha sifatida qayta ishlash amaliyotini yo‘lga qo‘yish shular jumlasidandir. Bularning barchasi havo tarkibidagi chang zarrachalarini kamaytirish va shahar muhitini sog‘lomlashtirishga xizmat qiladi.

Transport sohasida havoni muhofaza qilish bo‘yicha alohida yo‘nalishlar ham belgilangan. Motor yoqilg‘isi standartlarini bosqichma-bosqich kuchaytirish, avtotransport vositalarini “qizil”, “sariq” va “yashil” stikerlarni bergan holda ekologik toifalarga ajratish, texnik ko‘rikni ekologik talablar bilan bog‘lash, eski avtotransportni yangilash dasturlarini amalga oshirish, jamoat transporti ulushini ko‘paytirish nazarda tutilmog‘da. Bu orqali yo‘l harakati

bilan bog‘liq ifloslanish hajmini qisqartirish, ayniqsa, yirik shaharlar markazida havo sifatini yaxshilash maqsad qilingan.

“Toza havo” loyihasining muhim tarkibiy qismi sifatida issiqxonalar masalasi ham muhokama qilindi.

Toshkent shahri va Toshkent viloyatida issiqxona xo‘jaliklari juda ko‘p, ular orasida istish manbalari sifatida ko‘mir, mazut va nstandart yoqilg‘idan foydalanuvchi issiqxonalar ulushi ham yuqori, ular chiqarayotgan NO<sub>x</sub>, SO<sub>2</sub> va PM<sub>2,5</sub> kabi xavfli moddalar havo sifatiga jiddiy ta‘sir ko‘rsatayotgani qayd etildi. Qolaversa, Toshkent hududida yillik quyosh nurlanishi qolgan hududlarga qaraganda nisbatan past bo‘lgani sababli bu yerda issiqxonada mahsulot yetishtirish xarajati ancha baland. Masalan, yanvar oyida Toshkentda o‘rtacha harorat Selsiy bo‘yicha 6 daraja issiq bo‘lsa, Termizda — 10,8 daraja issiq. 1 tonna issiqxona mahsulotini yetishtirish xarajati Toshkent viloyatida 11,9 million so‘mni, Surxondaryoda esa 4,9 million so‘mni tashkil etadi.

Mahsulotlarni insolyatsiya darajasi yuqori bo‘lgan hududlarda yetishtirish issiqxona xo‘jaliklarining moliyaviy holati uchun ham, ichki bozordagi narx barqarorligi nuqtayi nazaridan ham manfaatli hisoblanadi.

Shu bois, Toshkent shahri va unga tutash hududlardagi issiqxonalarini energiya tejamon va tabiiy-iqlim sharoiti qulay bo‘lgan hududlarga bosqichma-bosqich ko‘chirish taklifi bildirildi. Xususan, Surxondaryo viloyatining Sherobod tumanida kamida 940 gektar maydonda agropark tashkil etish rejalashtirilgan. Bu hududda quyosh nurlanishi yuqori, qish nisbatan yumshoq, istish xarajatlari ancha past bo‘lib, bu mahsulot tannarxini keskin tushirish imkonini beradi.

2026-yil 1-oktyabrden boshlab Toshkent shahri va unga tutash hududlarda yangi issiqxona tashkil etishni cheklash, shu bilan birga, ko‘chirilayotgan xo‘jaliklarga infratuzilma, kredit va logistika bo‘yicha imtiyozlar berish nazarda tutilmog‘da. Taqdimotda “Yashil makon” doirasida

botanika va dendrologiya bog‘lari konsepsiyasi yuzasidan axborot berildi. Qayd etilganidek, botanika bog‘lari mahalliy va xorijiy o‘simliklarni o‘rganish, saqlash, ko‘paytirish va namoyish etishga xizmat qilsa, dendrologiya bog‘lari daraxt va buta turlarini introduksiya qilish, akklimatizatsiya qilish va ilmiy asosda parvarishlashga ixtisoslashgan hududlar hisoblanadi. Konsepsiyaga ko‘ra, botanika bog‘larida turli floristik ekspozitsiyalar, oranjereya, ko‘chatxona, ko‘l, ichki yo‘laklar, besedka va gulxona kabi obyektlar joylashtiriladi.

Hozirgi kunda mamlakatimizda 3 ta botanika bog‘i mavjud bo‘lsa, loyiha doirasida yana 12 ta botanika va 16 ta dendrologiya bog‘ini tashkil etish rejalashtirilgan. Bu jarayonda har bir hududning tuproq-iqlim sharoiti hisobga olinib, mos daraxt va butalar tanlanadi.

2028-yilga qadar Qoraqalpog‘iston Respublikasi, barcha viloyatlar va Toshkent shahrida maydoni 100 gektardan kam bo‘lmagan botanika va dendrologiya bog‘larini tashkil etish reja qilingan. Natijada 2030-yilgacha mamlakatda umumiy yashillik darajasini 14,2 foizdan 30 foizgacha oshirish, PM<sub>2,5</sub> va PM<sub>10</sub> konsentratsiyasini 20-25 foizga kamaytirish, iqlimi og‘ir hududlarda havo haroratini o‘rtacha 1,5-2 darajaga pasaytirish maqsad qilingan.

Shu bilan birga, poytaxtda Milliy dendrologiya bog‘ini barpo etish konsepsiyasi ham taqdimot qilindi. Ushbu yirik yashil hududning umumiy maydoni 108 gektarni tashkil etishi belgilangan. Loyiha doirasida 50 ming tup daraxt ko‘chati va 100 ming tup buta o‘simliklari ekilishi nazarda tutilgan. Park biologik xilma-xillikni saqlash, havo sifatini yaxshilash, uglerod yutilishini oshirish, ilmiy-tadqiqot va seleksiya ishlarini yo‘lga qo‘yish, shuningdek, shahar mikroiklimini sog‘lomlashtirishga xizmat qiladi. Bog‘ havo haroratini 2-4 darajaga pasaytirib, namlikni 10-15 foizga oshirishi mumkin.

Milliy dendrologiya bog‘i faqat ko‘kalamzor hudud emas, balki ilmiy, ma‘rifiy va jamoat makoni sifatida ham shakllantiriladi. Unda “Dunyo daraxtlari”

hududi, 6 ta iqlim mintaqasiga xos o‘simliklar kolleksiyasi, mevali va mahalliy daraxtzorlar, dorivor o‘simliklar bog‘i, oranjereya, gulzorlar, dam olish maydonlari, piyodalar va velosiped yo‘laklari, avtoturargoh, tashrif buyuruvchilarni kutib olish maydoni barpo etiladi.

Bog‘ning markaziy qismida 1 gektarlik sun‘iy ko‘l va uning atrofida sakura bog‘i tashkil qilish rejalashtirilgan. Park infratuzilmasida quyosh panellari, qayta ishlangan materiallardan tayyorlangan skameyka va besedkalar, avtomatlashtirilgan tomchilab sug‘orish tizimi kabi zamonaviy ekologik texnologiyalardan foydalanish ko‘zda tutilgan. Bu yer Markaziy Osiyo atrof-muhit va iqlim o‘zgarishi universiteti (“Green University”) uchun tabiiy laboratoriya, aholi uchun esa bioturizm va ekoturizm markaziga aylanadi.

“Ekomadaniyat” umummilliy loyihasi doirasida ekologik ta‘lim, ilm-fan va targ‘ibotni bir-biriga bog‘lagan holda yangi tizim yaratish rejalashtirilgan.

Mazkur sohada xalqaro standartlarga mos mutaxassislar yetishmayotgani, aholi o‘rtasida ekologik ong va barqaror odatlar hali yetarli darajada shakllanmagan, innovatsiya va iqlim texnologiyalarini amaliyotga joriy qila oladigan kadrlar taqchilligi mavjudligi qayd etildi. Shu munosabat bilan 2026/2027 o‘quv yilidan boshlab 14 ta hududda “yashil texnikumlar” tashkil etilib, ular “Green University” tizimiga akademik hamkorlik asosida birlashtiriladi.

Loyihaga ko‘ra, tayyorlanadigan o‘quvchi va talabalar soni yil sayin oshirilib, 2028-2029 o‘quv yiliga borib, 10 ming nafarga yetkaziladi. Bakalavriat va magistraturada atrof-muhit va barqaror boshqaruv, yashil iqtisodiyot, atrof-muhit muhandisligi, iqlim o‘zgarishi, cho‘llanishga qarshi kurashish, barqaror shaharsozlik, barqaror energiya almashinuvi kabi yangi yo‘nalishlar ochiladi. Ta‘lim jarayonida dual tizim joriy qilinib, nazariy bilim bilan amaliyot uyg‘unlashtiriladi. Universitet ta‘lim tizimini rivojlantirish, ilmiy-innovatsion loyihalar va targ‘ibot ishlari uchun katta miqdorda mablag‘ ajratish ko‘zda tutilgan.

Aholi orasida ekologik madaniyatni oshirish uchun “10 ming qadam piyoda” tashabbusini tiklash. “Sog‘lom turmush tarzi” platformasini ishga tushirish, shuningdek, Samarqand shahrida GEF-8 assambleyasi va “Eco Expo Central Asia 2026” xalqaro ko‘rgazmasini o‘tkazish rejalashtirilgan.

Taqdimotda cho‘llanishga qarshi kurash strategiyasi loyihasi ham alohida ko‘rib chiqildi.

Qayd etilganidek, O‘zbekiston hududining 70 foizi arid zonadan iborat bo‘lib, yerlarning 70 foizdan ortig‘i degradatsiyaga uchragan. Yer resurslarining yomonlashuvi iqtisodiyotga har yili 830 million dollar zarar keltirmog‘da. Orol dengizining qurishi natijasida 3 million gektar maydon yaroqsiz holga kelgan va hududning 56 foizi shamol eroziyasi ta‘sir ostida qolgan.

Shu munosabat bilan “Green University” huzurida mintaqaviy qo‘shma ilmiy-tadqiqot markazini tashkil etish taklif qilindi. Ushbu markaz cho‘llanishni boshqarish bo‘yicha Markaziy Osiyodagi birinchi ilmiy xabga aylinishi ko‘zda tutilmog‘da. Markaz tarkibida 15 ta ixtisoslashgan laboratoriya faoliyat yuritadi, sputnik ma‘lumotlari, GIS va masofadan zondlash texnologiyalari asosida yerlar holatini raqamli monitoring qilish yo‘lga qo‘yiladi, qurg‘oqchilikka chidamli o‘simliklar bo‘yicha genetik bank shakllantiriladi, tuproqning kimyoviy va fizik tahlil tizimi takomillashtiriladi. Buning natijasida cho‘llanishni prognoz qilish va xaritalash milliy tizimi yaratiladi, Orolbo‘yi va qurg‘oq hududlarda yashil qoplama kengaytiriladi, yaylovlardan barqaror foydalanish hamda cho‘l iqtisodiyoti modellarini joriy etiladi.

Davlatimiz rahbari taqdimot qilingan loyihalarning ekologik barqarorlikni ta‘minlash, aholi salomatligini muhofaza qilish, shahar va qishloq muhitini yanada qulaylashtirish, shuningdek, ushbu sohada ilm-fan hamda zamonaviy texnologiyalarni keng joriy etishdagi muhim ahamiyatini qayd etib, ularni ma‘qulladi.

O‘ZA



## IMOM BUXORIY MAJMUASI TARIXIY MEROS VA MA‘NAVIY QUDRATIMIZ RAMZI

Imom Buxoriy majmuasidagi yangilanishlarni oddiy qurilish yoki obodonlashtirish sifatida talqin qilish xato bo‘ladi. Bu — davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlari o‘zgargani, tarixiy merosga munosabat yangi bosqichga ko‘tarilganining amaliy ifodasi.

Avvalgi holatga nazar tashlasak, mazkur qadamjo ko‘proq ramziy ahamiyat kasb etar, ziyoratchilar oqimi esa uning haqiqiy salohiyatiga nisbatan cheklangan edi. Bu yerdagi asosiy muammo infratuzilma zaifligi, tizimli yondashuv yo‘qligi va ziyoratgohning xalqaro darajada targ‘ib etilmaganini bilan bog‘liq. Ya‘ni ma‘naviy boylik bor, lekin uni dunyoga namoyon qilish mexanizmi yetarli emasdi.

Yangi bosqichda esa yondashuv tubdan o‘zgardi. Endi bu joy faqat ziyoratgoh emas, balki kompleks tizim sifatida shakllantirildi. Bu o‘zgarishlar nimaning hisobidan amalga oshirildi degan savolga javob aniq: davlat rahbari darajasida aniq strategiya belgilab olindi va uni amalga oshirish uchun resurslar, tashkilotchilik va siyosiy iroda safarbar etildi. Bu jarayon bevosita Prezidentimiz tashabbusi bilan

bog‘liq ekani ham muhim. Chunki bunday loyihalarda shaxsiy siyosiy e‘tibor hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

Eng katta o‘zgarishlardan biri ziyorat turizmini iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanish drayveriga aylantirishdir. Ilgari ziyoratchilar kelib-ketadigan joy endi ularni qabul qilish, joylashtirish, xizmat ko‘rsatish va ular orqali iqtisodiy faollik yaratish markaziga aylangan. Bu esa mahalliy aholi uchun yangi ish o‘rinlari, tadbirkorlik imkoniyatlari va xizmatlar bozorining kengayishini anglatadi. Demak, ma‘naviy meros iqtisodiy resursga aylangan.

Davomiy 2-beta

## YO‘LLAR, DILLAR, ORZU VA UMIDLAR BIRLASHGAN MASKAN

Prezidentimiz Navro‘z umumxalq bayramiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi nutqida xalqimizga murojaat qilib: “Azaliy an‘analarimizni davom ettirib, ko‘chat ekib, bog‘ yarataylik, uyimiz, mahallamizni obod qilib, hayotimizni yanada go‘zal va farovon etaylik! Yaxshi qo‘shnichilik, ahilligimiz va ezgu ishlarimiz bilan yuksak marralarga intilayotgan xalq ekanimizni dunyoga namoyon etaylik! Yagona Vatan, yagona xalq bo‘lib, yangi hayot, yangi tarix, yangi kelajak yarataylik!” dedi.

Bu chaqiriq har bir yurtdoshimiz kabi bizning ham qalbimizdan chuqur joy oldi. Yagona Vatan, yagona xalq bo‘lib yashash ishtiyoqi yanada jo‘sh urdi. Ana shu tuyg‘uni amaliy harakatga aylantirishda mahalla faollarining muhim o‘rni bor. 2026-yilning Mahallani rivojlantirish va jamiyatni yuksaltirish yili deb e‘lon qilinishi bejiz emas. Mahallaning rivoji va jamiyat yuksalishi

bir-biriga juda mos tushgan. Chunki bu ikkisini bir-biridan ayro tasavvur qilish qiyin. Aynan shu moslik aniq strategik maqsadga qaratilgani bilan ahamiyatli.

Xalqimiz doim mahallada bir oila farzandlari kabi ahil-inoq yashagan. Mahalla kishini jamiyat bilan uyg‘un yashashga o‘rgatadigan, yoshlarni ezgu urf-odatlar va qadriyatlar ruhida tarbiyalaydigan maskan.

Unda barcha ish jamiyat bilan bamaslahat amalga oshiriladi. Hatto odamlar mahalladan uyalib, nojo‘ya ish qilishdan o‘zini tiyadi. Negaki, odob-axloq doirasidan chiqqanlarga “mahalladan uyalmaysanmi”, deb tanbeh beriladi.

Prezidentimiz tabrigida mahalla deganda, ko‘z oldimizda avvalo ona yurtimizning go‘zal timsoli namoyon bo‘lishi ta‘kidlanadi. Shuningdek, ishlarda oila va jamiyatda tinchlik-tovuvlik, o‘zaro mehr-oqibatni mustahkamlash, ijtimoiy muammolarni joyida hal etish, ezgulik va adolati qor topirish uchun ko‘pni ko‘rgan otaxon va onaxonlarimiz, “mahalla yetiligi”, faol fuqarolarimiz yaqindan ishtirok etishiga ishonch bildirildi.

Davomiy 3-beta



### Taraqqiyot odimlari



Yangi hayot, yangi tarix, yangi kelajak yaratish kabi buyuk maqsadni amalga oshirishda yurtimiz yoshlari asosiy tayanch bo'lishi muqarrar. Yangi O'zbekiston mamlakatimiz yoshlari uchun yuksak parvozlar, katta-katta g'alabalar maydoniga aylanib borayotgani ham ayni haqiqat.



## Munosabat



Qobiljon TURSUNOV,  
Oliy Majlis Senati a'zosi

## Boshlanishi 1-betda

Masalaning yana bir muhim jihati bor: mazmun. Ya'ni ziyoratgoh faqat tashqi ko'rinish yoki qulayliklar bilan cheklanib qolmayapti. Bu yerda Imom Buxoriy merosini zamonaviy formatda tushuntirishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

## IMOM BUXORIY MAJMUASI TARIXIY MEROS VA MA'NAVIY QUDRATIMIZ RAMZI

Ilgari bu kabi bilimlar asosan kitob va an'anaviy darslar orqali yetkazilgan bo'lsa, endi innovatsion usullar, vizual va interaktiv yondashuvlar orqali keng ommaga taqdim etilmoqda. Bu, ayniqsa,

yoshlar uchun muhim. Chunki ular axborotni boshqacha qabul qiladi.

Shu nuqtayi nazardan, bu loyiha yana bir strategik vazifani bajaradi: dini to'g'ri anglash muhitini shakllantirish. Hozirgi

global sharoitda — turli radikal g'oyalarni tarqalayotgan bir paytda asl manbalarga aslangan, ilmiy va mo'tadil islomni targ'ib qilish davlat xavfsizligi va jamiyat barqarorligi uchun ham muhim omilga aylanadi.

Kelajakda nimalar kutilyapti? Agar mazkur yo'nalish izchil davom ettirilsa, bu maskan nafaqat ziyorat markazi, balki xalqaro ilmiy va ma'rifiy platformaga aylanishi mumkin. Bu yerda konferensiyalar, tadqiqotlar, diniy muloqotlar o'tkazilishi orqali O'zbekiston islom sivilizatsiyasi markazlaridan biri sifatida yanada mustahkam o'rin egallaydi.

Bugungi o'zgarishlar faqat bir hudud taqdiri bilan cheklanmaydi. Ular orqali yangi O'zbekiston g'oyasi, ya'ni tarixiy merosga tayangan holda zamonaviy, ochiq va raqobatbardosh jamiyat qurish konsepsiyasi amalga namoyon bo'lmoqda. Bu esa nafaqat bugun, balki kelajak avlodlar uchun ham mustahkam ma'naviy va iqtisodiy poydevor yaratishni anglatadi.



## VATAN UCHUN FIDOYILIKKA DA'VAT



Nazira MATYOQUBOVA,  
O'zbekiston Jurnalistlar  
uyushmasi a'zosi

Shu kunlarda yurtimizda hukm surayotgan bayram shukhi, Navro'z va Ramazon qadriyatlarini o'zida mujassam etgan ezgu ishlar samarasi xalqimizning ko'tarinki kayfiyati, hayotidan rozilik hissi, shukronaligida namoyon bo'lmoqda. Bunga guvoh bo'layotgan har birimizning qalbimiz cheksiz faxr-iftixor tuyg'ulari bilan to'lib-toshishi tabiiy.

"Navro'zni ulug'lash — insonni ulug'lashdir!" g'oyasi xalqimizning mehramuruvvat, bag'rikenglik, bunyodkorlik salohiyatini nafaqat yurtimizning shaharu qishloqlari, mahallalaru ovullari bo'ylab namoyon etish, balki yanada yuksak ko'tarishga ishga tushirildi. Bu bir korxonaning ochilishi emas, balki butun tarmoq taraqqiyotida yangi davr boshlanganini anglatadi.

Joriy yilning 16-mart shahrimiz hayotida unutilmas sana sifatida muhrlandi. Shu kuni davlatimiz rahbari ishtirokida mamlakatimiz sanoatini yangi texnologik bosqichga olib chiquvchi 3-mis boyitish fabrikasi ishga tushirildi. Bu bir korxonaning ochilishi emas, balki butun tarmoq taraqqiyotida yangi davr boshlanganini anglatadi.

Ushbu tarixiy tadbirga ishtirok etish, ayniqsa, davlatimiz rahbari oldida fikr bildirish imkoniga ega bo'lish men uchun katta sharaf. Bu holatni oddiy voqea sifatida qabul qilish qiyin. Chunki har bir inson



## Dildagi gaplar

mehr-oqibat, saxovat va o'zaro qo'llab-quvvatlov muhitini yanada kuchaytirgan davr sifatida muhrlandi.

Prezidentimiz ishtirokida "Yangi O'zbekiston" bog'ida o'tgan tantanali marosimda ham inson qadri, tinchlik, birdamlik kabi ezgu g'oyalarni nafasi ufurib turdi. Sohibqiron Amir Temur davridayoq davlat siyosatining muhim yo'nalishi bo'lgan yaxshi qo'shchilik, millatlararo totuvlik va boshqa qator ezgu qadriyatlar namoyishi qalbimizni larzaga soldi, albatta.

Davlatimiz rahbari nuqtida yana bir g'oyani ilgari surdi: "Yagona Vatani, yagona xalq bo'lib, yangi hayot, yangi tarix, yangi kelajak yarataylik!". Bu barchamizni shu muqaddas ona yurtimiz taraqqiyoti uchun fidoyilikka chorlovchi da'vat sifatida yangradi. Aslida, juda mashaqqatli, ammo allaqachon poydevori qo'yilgan buyuk maqsaddir bu.

Yurtimizda 130 dan ortiq millat va elat vakillarining yagona Vatanda yagona xalq bo'lib, ahil-totuv yashayotganining o'zi bu maqsadni ro'yobga chiqarishning asosiy omilidir.

Bugun butun xalqimiz yangi hayot nashidasini surmoqda deb bemaolol ayta



olamiz. Barcha hududlarimizga, qishloq va ovullar, mahallalarimizga yangi O'zbekiston qiyofasini, yangilanishlar nafasini olib kirish bo'yicha boshlangan sa'y-harakatlar esa uning mazmun-mohiyati va sururini yanada oshiradi.

Darhaqiqat, yangi ish o'rinlari ochish, kambag'allikni qisqartirish, ijtimoiy himoyani kuchaytirish borasida ulkan qadamlar qo'yilmoqda. Yangidan yangi zamonaviy korxonalar, kommunikatsiya tarmoqlari, shinam uy-joylar, ta'lim, tibbiyot, madaniyat va sport obyektlari barpo etilmoqda. Navro'z umumxalq bayrami munosabati bilan "Yashil makon" umummilliy loyihasi, "Men ham ko'chat ekaman" aksiyalari, umumxalq hasharlarini faol o'tkazilmoqda.

Yangi hayot, yangi tarix, yangi kelajak yaratish kabi buyuk maqsadni amalga oshirishda yurtimiz yoshlari asosiy tayanch bo'lishi muqarrar. Yangi O'zbekiston

mamlakatimiz yoshlari uchun yuksak parvozlar, katta-katta g'alabalar maydoniga aylanib borayotgani ham ayni haqiqat. Prezidentimiz yoshlarga murojaat qilib, "Bugun Uchinchi Renessans bunyodkorlari bo'lishdek ulkan baxt va yuksak sharaf sizlarga nasib etmoqda. Qancha-qancha ajdodlarimiz intilib yashagan shu buyuk orzuni ro'yobga chiqarishga sizlar albatta qodirsiz", deya ishonch bildirgani bejiz emas.

Tinch, osuda yurtga bayramlar yaratadi. Turmushidan mamnun, qalbiga halovat ingan, ertangi kunga umid va ishonchi baland insonlarga bayram ham, xursandchilik ham tayyidi. Axir sayyoramizning qaysidir nuqtasida urush vayronagarchiliklariyu notinchlikdan aziyat chekib, osoyishtalikni orzu qilib yashayotganlar qancha?!

Shu jihatdan ham bu yilgi Navro'z o'zining bayramona shukhi, qadriyat va an'analari, hikmati, falsafasi, mazmun-mohiyati bilan nafaqat xalqimiz, balki dunyo e'tirofiga musharraf bo'ldi.



kabi rivojlangan davlatlar bilan hamkorlik qilib kelmoqda. Bu esa ish jarayoniga yangi standartlar, yangi talablar va yangi imkoniyatlarni olib kirmoqda. Bunday muhitda ishlash har bir mutaxassisdan yuqori bilim, kasbiy mahorat va doimiy izlanish talab qiladi.

Bugungi yosh mutaxassis uchun faqat kasbga ega bo'lishning o'zi yetarli emas. Chet tillarni bilish, zamonaviy texnologiyalarni anglash, tez o'zgaruvchan sharoitga moslasha olish — bularning barchasi muvaffaqiyat garovi. Men ham shu talablarni his etgan holda o'z ustimda ishlashga, bilimimni oshirishga harakat qilaman. Chunki bugungi sanoat kechagidan farq qiladi — u to'xtamaydi, doim oldinga intiladi.

Men o'zimni bir jamoaning a'zosisiga emas, balki yirik sanoat tizimining bir bo'li sifatida his qilaman. Bu hissiyot insonga kuch beradi, uni yanada mas'uliyatli va intilishga undaydi. Chunki bunday korxonada faoliyat yuritish faqat ish emas, balki ishonchni oqlash demakdir.

Majmuada yaratilgan sharoitlar, berilgan imkoniyatlar har bir yoshga o'z salohiyatini namoyon etish uchun zamin yaratadi. Inson imkoniyatini his etgan joyda intilish kuchayadi, intilish bor joyda esa natija paydo bo'ladi. Shu ma'noda, bugungi kunda barpo etilayotgan har bir loyiha yoshlarning kelajagiga qaratilgan mustahkam poydevordir.



## Nuqtayi nazar



## RAMAZON HAYITI VA NAVRO'Z BAYRAMI — MILLIY QADRIYATLAR TIMSOLI



Komiljon  
SHERMUHAMMEDOV,  
Imom Moturidiy xalqaro  
ilmiy-tadqiqot  
markazi direktori,  
tarix fanlari bo'yicha  
falsafa doktori, dotsent

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ezgu tashabbusi bilan "Ramazon — mehramuruvvat, ahillik va shukronalik oyi" shiori ostida keksalar, yolg'iz fuqarolar holidan xabar olindi, ehtiyojmand oilalarga g'amxo'rlik ko'rsatildi. Ijtimoiy himoyaga muhtoj shaxslarga moddiy yordam berildi.

Ushbu muborak kunlarda mehrga tashna qalblar, yolg'iz keksalar va bemorlar yo'qlandi. Iftorlik dasturxonlari ustida yurtdoshlarimizning kafti duoga ochilib, Vatanimiz ravnaqi, xalqimiz farovonligi yo'lida ezgu niyatlar qilindi. Muborak Ramazon oyida mutafakkir ajdodlarimiz siyosiga hurmat-ehtirom ko'rsatish, ularning hayoti va boy ilmiy-ma'naviy merosini o'rganish hamda yosh avlodga yetkazish yuzasidan ham ulkan ishlar bajarildi.

Payariq tumanidagi Imom Buxoriy yodgorlik majmuasining qaytadan bunyod etilgani, O'zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazining ochilishi Ramazon hayiti hamda Navro'z ayyomiga hamohang ravishda xalqimizga haqiqiy bayram shukhini ulashdi.

Zotan, qadriyatlarimiz timsoli bo'lgan muqaddas Ramazon hayiti hamda bahorning qutlug' ayyomi — Navro'z bayrami yurtimizda alohida qadrlanadigan, xalqimizning ma'naviy va madaniy hayotida muhim o'rin tutadigan kunlardir. Bu bayramlar xalqimizning asrlar davomida shakllangan boy madaniyati va yuksak ma'naviyatini namoyon etadi. Shunday muborak kunlarda xayrli tadbirlarning o'tkazilishi ham bejiz emas, albatta.

Toshkent shahrida qad rostlagan muhtasham va mahobatli Islom sivilizatsiyasi markazi ulug'vorligi hamda beqiyos xazinasi bilan butun dunyo xalqlarini lol qoldirib, ajdodlarimizning ilm-fan va jahon sivilizatsiyasiga qo'shgan hissasi, yangi O'zbekistonda inson qadriini kengitirish maqsadida amalga oshirilayotgan keng ko'lami islohotlarni xalqaro miqyosda targ'ib qiladigan noyob va yirik ilmiy-madaniy platforma sifatida namoyon bo'lmoqda.

Samarqand viloyatida tubdan qayta yangilanib, o'z gacha qiyofa kasb etgan Imom Buxoriy majmuasi esa buyuk muhaddis bobomizning islom olamida utgan yuksak mavqei, ulkan salohiyatiga munosibdir.

Mazkur xayrli ishlarning uzviy davomi sifatida Samarqandda aqida va kalom ilmining sultoni Imom Moturidiy majmuasi yangidan barpo etilmoqda.

Prezidentimiz Samarqand viloyatiga tashrifi davomida Imom Moturidiy yodgorlik majmuasidagi bunyodkorlik ishlari bilan ham tanishdi. Endi Imom Moturidiy ziyoratgohi qayta qurilib, 250 o'rinni masjid, innovatsion muzey, kutubxonani qamrab olgan muhtasham majmuaga aylanadi.

Mazkur majmualar yurtimizning dovru'g'ini xalqaro hamjamiyatga keng yoyish, ko'p asrlik

Mamlakatimizda so'nggi yillarda inson qadriini ulug'lash, aholini ijtimoiy himoya qilishga qaratilgan keng ko'lami islohotlar amalga oshirilmoqda. Mazkur tamoyillar, ayniqsa, bu yilgi Ramazon oyida yorqin namoyon bo'ldi, saxovat va hamjihatlik qadriyatlar amaliy ishlar bilan yanada mustahkamlandi.

tariximiz va boy madaniyatimiz, ajdodlarimizning jahon sivilizatsiyasi rivojiga qo'shgan bebaho hissasini namoyon etadigan ilmiy-ma'rifiy maskan sifatida Uchinchi Renessans uchun mustahkam poydevor vazifasini o'taydi.

Ramazon oyi munosabati bilan o'tkazilgan iftorlik marosimida keng jamoatchilik vakillari, turli millat va diniy konfessiyalar, diplomatik korpuslar, xalqaro tashkilotlar xodimlari ham ishtirok etgani yurtimizda bag'rikenglik, hamjihatlik, birdamlik an'analari naqadar ustuvor ekanini ko'rsatdi.

Davlatimiz rahbari hozirgi g'oyat tahlikali davrda tinchlik naqadar ulug' va bebaho ne'matligiga alohida e'tibor qaratib, 38 milliondan ziyod yurtdoshlarimiz yagona xalq, ahil oila bo'lib yashayotganini eng katta boyligimiz ekanini, buni barchamiz yanada chuqur his etishimiz zarurligini ta'kidladi.

Chunki bugun dunyoning turli nuqtasida notinchlik va qurolli nizolar davom etayotgan bir paytda O'zbekistonda o'tkazilayotgan bu kabi xayrli tadbirlar tinchlik va xotirjamlik, o'zaro ahillikning naqadar bebaho ne'mat ekanini yana bir bor namoyon etmoqda.

Osoyishta va farovon kunlar uchun Yaratganga har qancha shukrona keltirsaq arziydi. Zero, faqat mana shunday osudalik, barqarorlik hukmron joydagina bunyodkorlik ishlari, ilm-fan, taraqqiyot ravaq topadi.

Iftorlik marosimida davlatimiz rahbari O'zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazi, Imom Buxoriy, Imom Termiziy, Imom Moturidiy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazlarining taqdimotini BMT qarorgohida o'tkazish tashabbusini yana bir bor ta'kidladi.

Bu ilmiy markazlar shunchaki muhtasham binolar emas, balki yoshlarimiz orasidan yangi xorazmiylar, beruniylar, ulug'beklar, farg'oniyalar, buxoriylar, termiziyalar, moturidiylar yetishib chiqishi uchun mustahkam ma'naviy maydon bo'lishi kerak.

Ramazon oyi munosabati bilan qilingan xayrli ishlar, ma'rifiy-madaniy tadbirlarda Imom Moturidiy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi jamoasi ham faol ishtirok etdi. Unda moturidiylik ta'limga namoyandalarning boy ilmiy-ma'naviy merosini o'rganish va keng targ'ib qilish bilan bir qatorda, xalqimizga ma'naviy ozuqa ulashish, ayniqsa, Ramazon oyida insonlarni egzulik va yaxshilikka chorlaydigan turli targ'ibot materiallarini namoyish etishga alohida e'tibor qaratildi.

Xususan, muborak Ramazon oyi davomida davlat va nodavlat telekanallarda "Ma'rifat manzillari" turkumi doirasida yurtimizda diniy-ma'rifiy sohada qadriyat islohotlar, xususan, ilmiy-ma'rifiy markazlar, ta'lim muassasalari, ziyoratgohlar, muqaddas qadamlar, qayta ta'mirlangan majmualar faoliyatiga bag'ishlangan 18 ta qisqa, xalqchil, ma'rifiy ko'rsatuv, kalom ilmining sultoni Imom Moturidiyning bag'rikenglik, mo'tadillik va ma'rifatga chorlovchi hikmatlarini yoritishga bag'ishlangan 30 ta rolik, alloma qalamiga mansub "Ta'vilat al-Qur'on" asaridagi bugungi kun uchun dolzarb mavzular shahiga bag'ishlangan 20 ta ko'rsatuv efriga uzatildi.

Ramazon oyi insonlarni egzulik, mehroqibat va bag'rikenglikka chorlaydigan, jamiyatda hamjihatlik va o'zaro hurmat muhitini mustahkamlaydigan muborak oydir. Bu oydagi xayr-saxovat, ehtiyojmandlarga ko'rsatilgan g'amxo'rlik va ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar xalqimizning yuksak insoniy qadriyatlariga sodiq ekanini yana bir bor namoyon etdi.

## Shukuh



## HAR BIR LOYIHA KELAJAK UCHUN MUSTAHKAM POYDEVOR

Ulkan sanoat inshootlari tasodifan paydo bo'lmaydi. Ular ilm, tafakkur va inson mehnatining uyg'unligidan vujudga keladi. 3-mis boyitish fabrikasi ham aynan shunday zamonaviy bilim, ilg'or texnologiya va minglab insonlarning sidqidildan qilgan mehnati samarasi. Uning barpo etilishi ortida yillar davomida to'plangan tajriba, izlanish va ishonch mujassam.



Ozoda YUNUSOVA,  
3-mis boyitish fabrikasi  
mutaxassisi

Ayniqsa, xalqaro hamkorliklar bu taraqqiyotning muhim omiliga aylangan. Kombinativ bugungi kunda Buyuk Britaniya, Germaniya, Yaponiya, Xitoy

qalbidagi yashirin orzular bo'ladi. Mening orzularimdan biri ham ana shunday uchrashuv edi. Bugun esa kombinativ oddiy ishchisi sifatida shu orzum ro'yobga chiqqanini chuqur his etdim.

Men bir necha yildan buyon mis boyitish fabrikasida flotator bo'lib ishlab kelmoqdaman. Bu vaqt davomida o'zgarishlarni o'z ko'zim bilan ko'rdim. Bugun kombinativ eng ilg'or texnologiyalar bilan jihozlangan, raqamli boshqaruv tizimlari joriy etilgan, ish samaradorligi va aniqlik yangi bosqichga ko'tarilgan.



Taraqqiyot odimlari

# YO'LLAR, DILLAR, ORZU VA UMIDLAR BIRLASHGAN MASKAN



Muso ANORBOYEV, O'zbekiston mahallalari uyushmasi Jizzax viloyat boshqarmasi boshlig'i o'rinbosari

## Boshlanishi 1-betda

Ha, jamiyatdagi birdamlik, ahilik mahalladan boshlanadi. Buning uchun mamlakatimizda mahalla tizimi xodimlari uchun barcha shart-sharoit yaratib berilmoqda. Buni buniyodkorlik, yaratuvchanlik ishlarida ham ko'rish mumkin. Ular raqamlarni ko'paytirish uchun emas, odamlarni rozi qilishga qaratilgan bilan

ahamiyatli. Buni mamlakatimizning barcha hududlaridagi kabi Jizzax viloyati mahallalari hayotidagi o'zgarishlarda ham ko'rish mumkin.

Viloyatimizda 304 ta mahalla bor. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar sabab mahallalarning barchasi obod, farovon bo'lib bormoqda. Bu, birinchi navbatda, odamlarning turmushida aks etayotir. "Obod qishloq", "Obod mahalla" davlat dasturi asosida qayta qurishdan boshlangan yangilanishlarni har bir xonadon, har bir yurtdoshimiz hayotida aniq ko'rish mumkin. Bu yangi O'zbekistondagi "Odamlarimiz islohotlar samarasini uzoq kelajakda emas, bugun o'z hamyotlari misolida his qilishlari, sezishlari kerak", degan xalqchil siyosatning natijasidir. Shubhasiz, bu o'zgarishlar odamlarning ruhiyatini o'zgartirdi, qalblarida hayotga havas uyg'otdi, dunyoga o'z-gacha nigoh bilan qarashga undab, tasavvurlarini kengaytirdi. Muhimi, mahallani eng qulay yashash manzili aylanitirishdagi islohotlar izchil davom ettirilmoqda.

Uy-joylar qurish, eskilarni rekonstruksiya qilish keskin ko'paydi. Hozir qishloq aholisi 10-15 yil avvalgidek, oddiy xom g'ishtdan emas, zamonaviy qurilish ashyolaridan foydalanib, loyiba asosida, har tomonlama qulay uylar qurayapti. Ayniqsa, "Ochiq byudjet" orqali yo'llar, ko'chalari asfaltlanishi, sport ijtimoiy inshootlar qurilishi, ta'mirlanishi qishloqlarning qiyofasini tubdan o'zgartirib yubordi.

Mahallalarning tashqi qiyofasida yaqqol ko'rinib turgan bu o'zgarishlar, obodlik manbai, avvalo, elimizning to'qligi, turmushining farovonligidir. Kredit, subsidiya, kompensatsiya kabi 100 dan ziyod xizmatlar orqali ijtimoiy himoyaning mutlaqo yangi tizimi yo'lga

qo'yildi. Bular mahalladagi "yettilik"ning o'ziga berildi. Natijada ishsizlik qisqarib, ko'plab aholi kambag'allikdan chiqdi. Misol uchun, viloyat bo'yicha 2025-yil boshida ishsiz fuqarolar soni 58 ming 991 nafar edi. Yil yakuniga qadar ularning aksariyati ish bilan ta'minlanib, ishsizlik darajasi 4,7 foizga tushirildi. Natijada 60 dan ziyod mahalla ishsizlikdan xoli hududga aylandi.

"Mahalla yettligi" aholi bandligini ta'minlashda davlat organlari bilan faol hamkorlik qilmoqda. Ayniqsa, yoshlar va xotin-qizlarni ish bilan ta'minlashga alohida e'tibor qaratilayapti. Birgina o'tgan yil yanvar-oktyabr oylarida "individual rejalar" doirasida 19 ming 972 oila daromadini oshirishga qaratilgan 33 ming 854 ta xizmatlar ko'rsatildi. Mahallalardagi ishsiz fuqarolardan 15 ming 996 nafari ishga joylashtirildi. Qolaversa, 12 ming 472 fuqaro tadbirkorlikka jalb etilib, yana 4143 nafariga kredit va subsidiya mablag'lari ajratildi. Bundan tashqari, 1243 nafari kasb-hunarga o'qitildi. Amalg oshirilgan ishlar natijasida viloyatda umumiy kambag'allik darajasi 3,7 foizga tushdi. Jizzax shahri va G'allaorol tumanini ishsizlikdan xoli hududga aylantirish bo'yicha aniq chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Odamlarning daromadi bo'lishi, to'q yashashi jamiyat osoyishtaligining asosiy kafolati. Ko'plab ko'ngilsizliklarning, hayotdan xafalikka sababi ham kambag'allik hisoblanadi. Ro'zg'ori but, oilasi tinch odam yaxshilikka intiladi. Shu ma'noda, mahallani rivojlantirish va jamiyatni yuksaltirish bir-biriga bog'liq yumush. Quvonarlisi, mamlakatimizdagi islohotlar ana shunday hayotiy qonuniyatga uyg'un tarzda kechmoqda. Aholi farovonligini



oshirishga birinchi navbatdagi vazifa sifatida qaralmoqda. Quvonarlisi, joriy yilda ilk bor mahalla infratuzilmasini rivojlantirish uchun 20 trillion so'mi viloyatlarning o'ziga beriladigan bo'ldi. Bu ham yuqorida aytilgan mahallaga berilayotgan e'tiborning isboti. Murojaatnomada ta'kidlanganidek, ma'ablag'larning har bir so'mi aholimiz uchun qo'shilgan qiymat yaratishi zarur. Shu bois, bu pullar mahallada ish o'rnlari yaratadigan, aholini daromadli qiladigan aniq loyihalarga yo'naltiriladi.

Prezidentimiz 2025-yil so'ngida viloyatimizga qilgan tashrifi chog'ida aynan shu yo'nalishni 2026-yil uchun asosiy vazifa sifatida belgilab bergan edi. Unga ko'ra, joriy yilda 4,5 milliard dollar xorijiy investitsiyalarni jalb

qilish, eksporti 500 million dollarga yetkazish, 90 ming aholi bandligini ta'minlash, 5,2 ming oilaning 22,6 ming a'zosini kambag'allikdan chiqarish zarur. Shuningdek, Zafarobod va G'allaorol tumanlari hamda 24 ta mahalla "Yangi O'zbekiston" qiyofasidagi hududlarga aylantirilishi belgilanib, buning uchun 250 milliard so'm ajratilgan.

Bular quruq rejalar emas, albatta. Bu vazifalarning aniq ijrosi hukumatimiz ko'magi va qo'llab-quvvatlovda amalga oshirilmoqda. Jumladan, Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 10-dekabrda qabul qilingan "Jizzax viloyatining Sharof Rashidov tumanini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, investitsiya va tadbirkorlik muhitini yanada yaxshilash chora-tadbirlari to'g'risida"gi

qaroriga ko'ra, tumandagi Yangiobod mahallasi hududida 4 ta yetti qavatli 168 xonadonli turar joy qurish taklifi ma'qullandi. Ahamiyatlisi, bu binolarning birinchi qavatida savdo va xizmat ko'rsatish obyektlari barpo etiladi.

Mahalla bilan bog'liq milliy qadriyatlarimiz orasida tarbiyaviy masala alohida o'rin tutadi. "Bir bolaga yetti mahalla ota-oni", "Mahalla ota-onang" kabi xalq hikmatlari ham shundan kelib chiqib aytilgan. "Mahalla yettligi", el ishonch bildirib saylagan mahalla raislari, kengash a'zolari, faollari aholi turmush madaniyatini oshirishda jonbozlik ko'rsatmoqda. Aholi o'rtaida tibbiy, huquqiy, ekologik bilimlarni keng tarqib qilish maqsadida turli madaniy-ma'rifiy tadbirlar muntazam o'tkazilmoqda.

O'tgan yili notinch, ajrim yoqasidagi oilalarning mavjud muammolarini bartaraf etish bo'yicha jamoatchilik kengashlariga 608 nafar imom-xatib va otinoyilar jalb qilindi. Ajrim yoqasidagi 2120 oila bilan olib borilgan manzilli ishlar natijasida 1783 oila yarashirildi. Muqaddam sudlangan va ma'muriy nazoratda turgan shaxslarning 257 nafari bandligi ta'minlandi, 208 nafarining ijtimoiy muammosi hal etildi.

Shuningdek, kriminogen vaziyati og'ir bo'lgan mahallalardagi 214 ta ichki yo'lga, 196 ta yo'lak, 247 ta ko'chaga tungi yoritish chiroqlari, kirish-chiqish joylariga yuzni va avtoraqamlarni tanib oluvchi 300 ta kamera hamda ko'p qavatli uylarning eshiklariga 500 ta zamonaviy domofon komplekslari o'rnatildi. Olib borilgan ishlar natijasida 160 ta mahalla jinoyatchilikdan, yana 10 tasi ajrimdan xoli hududga aylandi.

Bugungi kunda mahallalarda yosh avlod tarbiyasiga, ularni milliy g'urur va iftixor uyg'ulari asosida tarbiyalashga katta e'tibor qaratilayotgani samara berayotir. Mahallalarda yoshlarni to'g'ri tarbiyalash, ularning bosh vaqtini mazmunli o'tkazish uchun yetarli sharoit yaratilgan. Barcha tumanlarda "Yoshlar markazi" barpo etildi. Ularda ma'naviyat-ma'rifati xonasi, turli to'garaklar, biznes o'quv-konsalting markazlari, sport seksiyalari, axborot-resurs markazlari faoliyat ko'rsatayotir. Xususan, xalqimizga xos bo'lgan umuminsoniy qadriyatlarini, yuksak vatanparvarlik hisini yoshlar ongiga singdirishda "Qadriyatlar beshigisan, aziz mahallam" shiori ostida har yili an'anaviy tarzda o'tkaziladigan "Mahallam tarixini o'rganaman" kabi ko'rik-tanlovlarning, umumxalq besharlari, boshqa ma'rifiy tadbirlarning o'mi katta.

Milliy qadriyatlarimizni yoshlar qalbiga yanada chuqurroq singdirishda mahalla tarixini o'rganish ham muhim ahamiyatga ega. Shu maqsadda yana bir xayrli ishni amalga oshirib, viloyatdagi mahallalar qomusini yarataymiz. Ushbu majmuga viloyatdagi mahalla fuqarolar yig'inlarining tashkil topishi, maydoni, tarixi, nomlanishining toponomik asoslari, infratuzilmasi holati haqida qisqacha ma'lumotlar kiritilmoqda.

Bir so'z bilan aytganda, Mahallani rivojlantirish va jamiyatni yuksaltirish yili doirasida belgilangan vazifalarni siddiqdildan bajarishga kirishdik. Shu orqali davlatimiz rahbari bilan bir safda turib, mahallalar har tomonlama taraqqiy etishi, aholi farovonligi oshishiga o'z hissamizni qo'shishni maqsad qilganmiz. Zero, yangi O'zbekistonning mustahkam poydevori mahallada yaratiladi.

## DAVLAT BOSHQARUVI VA MAHALLA TRANSFORMATSİYALASHUVINING O'ZARO UYG'UNLIGI



### Jamiyat – islohotlar tashabbuskori

mexanizmiga davlat miqyosida e'tibor qaratildi. Bu sa'y-harakat bugun natijasini bermoqda.

Qonunchiligimizga ko'ra, mahalla fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organidir. Lekin u o'zining odamlarni yagona maqsad, yaqin qo'shnihilik, mehr-ohibat hamda milliy qadriyatlar asosida birlashtirish kabi tarixiy missiyasi tufayli davlat boshqaruvi samaradorligiga munosib hissa qo'shmoqda. Ayniqsa, yoshlarni vatanparvar insonlar etib tarbiyalash yoki jamoatchilik nazoratini amalga oshirish singari muhim funksiyalari mahallaning davlat boshqaruvida salmoqli ta'sir va mavqega ega ekanini ko'rsatadi.

Davlat siyosati ta'siri dastlab insonlar ongi va xulq-atvorida, so'ng mahallalarda namoyon bo'ladi. Buning ma'nosi shuki, so'ngi o'n yildagi islohotlar samarasini har bir inson, har bir xonadon va mahalla kundalik hayotida his qilmoqda. Prezidentimiz Murojaatnomada qayd etganidek: "Bu ishlarni boshlaganimizda aholimizning uchdan bir qismi kambag'allik chegarasida yashardi. Kredit, subsidiya, kompensatsiya kabi 100 dan ziyod xizmatlar orqali ijtimoiy himoyaning mutlaqo yangi tizimini yo'lga qo'yganimiz va bularni mahalladagi "yettilik"ning o'ziga berganimiz natijasida 8,5 milliondan ziyod odam kambag'allikdan chiqdi, ishsizlik 2 karra qisqardi. Natijada uch yil oldin kambag'allikni 2026-yil yakuni bilan 2 karra qisqartirish bo'yicha olgan mazzamizni shu inlayot o'zida uddaladik".

Mana, mahallaning davlat boshqaruvidagi ta'siri, samarasi va amalda nimalarga qodirligi isboti. Bu real natija, amaliy fakt, aholi muammolari hal etilishining asosidir.

Fuqarolarning huquq va erkinliklari hamda qonuniy manfaatlarini ta'minlashda mahalla barchamiz uchun ham ota, ham ona. Shu bois, mahalla huquqiy jihatdan fuqarolarning Konstitutsiya va qonunlar bilan kafolatlanadigan mahalliy ahamiyatga molik masalalarini o'z manfaatlaridan, rivojlanishning tarixiy xususiyatlaridan, shuningdek, milliy va ma'naviy qadriyatlardan, urf-odat va an'analardan kelib chiqqan holda hal etadigan mustaqil tuzilma.



Prezidentimiz Murojaatnomada vatan manfaati — xalqimiz manfaatidir degan ulug' g'oyani ilgari surdi. Bu oliy maqsadni amalga oshirishda mahalla tizimining o'mi va ta'siri beqiyosligi hamda mahalla rivojlansin, butun mamlakatimiz yuksalishini yana bir bor e'tirof etdi. Shu nuqtayi nazardan, 2026-yil mamlakatimizda Mahallani rivojlantirish va jamiyatni yuksaltirish yili deb e'lon qilindi. Bildirilgan fikr va tashabbus davlat boshqaruviga strategik ahamiyatga ega muhim transformatsiyalashuv jarayonidir. Chunki bunday transformatsiyalashuv tufayli davlat boshqaruvining iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy-huquqiy va madaniy-ma'rifiy ustuvor yo'nalishlari yanada isloh etilib, yuksalishiga bevosita zamin yaratiladi.

Mamlakatimiz yetakchisi Murojaatnomada davlat boshqaruvi va mahalla transformatsiyalashuvining o'zaro uyg'unligi borasidagi fikrlarini davom ettirib, "Yurt obodligi, avvalo, mahalladan boshlanadi. Aynan mahalladagi yo'l, suv, elektr va transport ta'minoti, bog'cha, maktab va oilaviy poliklinikadagi shart-sharoitlarga qarab, odamlar islohotlarimizga baho beradi. Shu bois, mahalla tizimini rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishi bo'lib kelgan va shunday bo'lib qoladi", dedi.

Shu o'rinda mahalla tizimini transformatsiyalash natijasida davlat boshqaruvi orqali yurtimizni har tomonlama yuksaltirish,

uning obodligi va farovonligini ta'minlashga erishilishini nazardan chetda qoldirmaslik kerak.

So'zimizni asoslash uchun yana Murojaatnomadagi davlat boshqaruvi va mahalla transformatsiyalashuvining o'zaro uyg'unligi borasidagi quyidagi fikrga asoslanamiz: "Deputatlarga o'z okrugidagi muammolari hal etish uchun 500 milliard so'm, har bir deputatga 3,3 milliard so'mdan beryapimiz. Bu borada "yashil hudud", "yashil bog" yaratish bo'yicha har bir deputatning tashabbusiga qo'shimcha 330 million so'mdan yo'naltiramiz. Bunday yondashuv orqali 2030-yilgacha barcha tumanlardagi mahallalarga Yangi O'zbekiston qiyofasini olib kiramiz".

Darhaqiqat, mazkur mexanizmi yo'lga qo'yish orqali davlat boshqaruvidagi islohotlarni aynan mahallalar orqali quyi tizim va real hayotga ta'biq etish nazarda tutilayotganini ko'rish mumkin. Ya'ni transformatsiyalashuv uyg'unlashmoqda.

Yangi O'zbekistonda davlat boshqaruvi va mahalla transformatsiyalashuvi samaradorligini oshirishning aniq mexanizmi ham Murojaatnomada o'z aksini topgan. Unda davlat boshqaruvi nomarkazlashtirish, hududlarni bosqichma-bosqich rivojlantirishga e'tibor qaratiladi: "...tuman byudjeti daromadlarini kamida 2 karra ko'paytirishga sharoit yaratib berish zarur. Shu maqsadda 2026-yil 1-yanvardan boshlab, qo'shilgan qiymat solig'idan tushumning Toshkent shahrida 5 foizi, qolgan hududlarda 20 foiz qoldirilib, bu mablag'ning yarmi tumanlar byudjetiga o'tkaziladi."

Bundan tashqari, daromadlarning prognozga nisbatan oshirib bajarilgan qismining 50 foizi, ekin yerlarini ijraga berish va bozorlardan tushumlar ham to'liq tuman byudjetiga beriladi."

Buning ma'nosi shuki, transformatsiyalashuv jarayoni yuqoridagi quyi bo'g'ingacha qarab dastlab huquqiy, iqtisodiy va siyosiy ahamiyat kasb etib boradi. Davlat byudjeti hisobidan tumanlarga berilayotgan bunday huquq — iqtisodiy resurs — siyosiy erkinlik zamirida xalqning muammolarini bartaraf etish va farovonligini oshirish maqsadi turibdi. Zotan, davlat boshqaruvida markazdan hududlarga erkinlik hamda imkoniyat berilishi mahallaning transformatsiyalashuvini tezlashtiradi. Fikrimizni kengroq asoslash uchun Murojaatnomadagi quyidagi vazifaga

e'tibor qaratishni lozim topdik: "Viloyat, tuman hokimlariga samarasiz va bir-birini takrorlaydigan shtat birliklarni qisqartirib, tejalgan mablag'ni aholi o'rtaga qo'ygan masalalarni hal qilish uchun ajratishga ruxsat etiladi. Bu orqali tumanlar byudjetida yiliga 5 trillion so'mlik qo'shimcha mabla shakllanadi va u mahallalar infratuzilmasini yaxshilashga sarflanadi".

Bu yerda ham gap davlat boshqaruvi va mahalla transformatsiyalashuvi haqida bormoqda. Boshqacha aytganda, davlat organlari mahalla rivoji va xalq farovonligi yo'lida o'z faoliyatini takomillashtirishga mas'ul bo'lyapti.

Yuqoridagilardan mahallaning transformatsiyalashuvi faqat davlat organlari orqali bilvosita amalga oshirilgan ekan degan bir tomonlama xulosaga kelmaslik kerak. Masalaning bu jihati ham Murojaatnomada muammoni hal etishning aniq yechimi sifatida belgilab qo'yilgan: "Kelgusi yilda ilk bor mahalla infratuzilmasini rivojlantirish uchun 20 trillion so'mni viloyatlarning o'ziga beryapimiz. Eng muhimi, bu mablag'larning har bir so'mi aholimiz uchun qo'shilgan qiymat yaratishi zarur. Shu bois, bu pullar umuman qaysidir tuman uchun emas, balki mahallada ish o'rnlari yaratadigan, aholini daromadli qiladigan aniq loyihalarga yo'naltiriladi.

Marhamat, qaysi mahalla raisi, hokim yordamchisi va mahalla bankiri loyiba qilib, uni asoslab bersa, zarur mablag'ni olsin. Shunda adolatdan bo'ladi".

Mazkur huquqiy mexanizm muayyan vaqt o'tgach, real ahamiyat kasb etib, samara berishi shubhasiz. Chunki ushbu transformatsiyalashuvdan davlat boshqaruvi organlari, mahalla instituti, xalqimiz birdek manfaat ko'radi.

Davlat boshqaruvi va mahalla transformatsiyalashuvining o'zaro uyg'unligi bevosita zamon talabi — odamlarning ehtiyoj va manfaatlaridan kelib chiqayotgani bois ham dolzarb. Shu nuqtayi nazardan mazkur transformatsiyalashuv jarayonida quyidagi ustuvor yo'nalishlarga e'tibor qaratish muhim:

Birinchidan, mamlakat ravnaqi va xalq farovonligi aynan mahalladan boshlanadi. Mazkur maqsad kelib chiqib, mahallani odamlarning turli yo'nalishlardagi muammolarini hal etadigan tizimga aylantirish zarur.

Ikkinchidan, mahalla infratuzilmasini tubdan yaxshilash natijasida davlat boshqaruvi keng miqyosda transformatsiyalashuv hamda mahallaning yurt ravnaqidagi o'mi va rolini yanada oshirishga ustuvor vazifa sifatida qarash lozim.

Uchinchidan, fuqarolarning iqtisodiy, ijtimoiy, huquqiy va madaniy doiradagi muammolarini hal etish masalasiga kompleks yondashuvni joriy etishga ehtiyoj sezilmoqda.

To'rtinchidan, mazkur kompleks yondashuvni dastlab tanlab olingan subyektlarda tajriba tarixida sinovdan o'tkazish har tomonlama o'zini oqlaydi.

Prezidentimiz Oliy Majlis va xalqimizga Murojaatnomasida yangi O'zbekistonni barpo etishda mamlakatimiz hal qiluvchi bosqichga qadam qo'yayotgani va mazkur yo'nalishda har bir soha hamda tarmoq chuqur transformatsiya talab qilishini alohida ta'kidlagan edi. Zero, yurtimizda davlat transformatsiyasi talab qilishini alohida ta'kidlagan edi. Zero, yurtimizda davlat transformatsiyasi talab qilishini alohida ta'kidlagan edi. Zero, yurtimizda davlat transformatsiyasi talab qilishini alohida ta'kidlagan edi.



Eshmuhammad QODIROV, yuridik fanlar doktori, professor

Boshqaruvda milliy davlatchilik tarixi, milliy mentalitet, qadriyat, urf-odat, an'analariga tayangan mamlakat, shubhasiz, istiqbolli boshqaruvga ega bo'ladi. Shu nuqtayi nazardan, mahalla milliy davlatchiligimiz tarixida o'z o'rnini va mavqega ega bo'lib kelmoqda. Yangi O'zbekistonda ham o'tgan o'n yilda mahalla tizimi isloh etilib, boshqaruvda uning o'rni va rolini oshirishning huquqiy



Dolzarb mavzu



# AVTOMOBIL SUG'URTASI

## Qonuniy huquqlarimizni bilamizmi?

Inson hayoti, salomatligi, mol-mulkini sug'urtalash jahon amaliyotida ancha ommalashgan. Bunda biror baxtsiz hodisa tufayli sug'urtalangan shaxs yoki buyumga zarar yetsa, shartnoma tuzilgan sug'urta kompaniyasi tovon puli to'lab berishi haqida ko'p eshitamiz. Avtomobil sug'urtasi ham shunday: kutilmaganda yuz beradigan yo'l-transport hodisasi sabab ko'riladigan zararining muayyan qismi qoplanishiga kafolatdir.

### Tovon puli qaysi tomonga beriladi?

Keyingi yillarda sohadagi sezilarli rivojlanishlar sabab sug'urta kompaniyalari soni ortib, ular o'rtasida sog'lom raqobat paydo bo'lmoqda. Odamlarning ham huquqiy savdonligi oshgan, sug'urta shartnomalarini shunchaki tuzmay, zarur hollarda tovon pulini talab qila boshladi. Tanlov imkoniyati ham yetarlicha. Birgina avtomobil sug'urtasi bo'yicha o'nlab kompaniya xizmatlarini taklif qiladi.

Aslida, hech kim yo'l-transport hodisasi bo'lishi tarafdori emas. Ammo kutilmaganda turlari vaziyat bo'ladi. Kichik e'tiborsizlik sabab istalgan vaqtda ko'ngilsizlik ro'y berishi mumkin. Bundan aybdor ham, jabrlangan ham birdek zarar ko'radi. Ruhiy yoki jismoniy zarardan tashqari yetkazilgan moddiy zarar ko'lami ham turlicha bo'ladi. Ba'zan zararni qoplashga tomonlarning imkoniyati yetmaydi. Shunday vaqtda sug'urta tovonini zararni muayyan qismini yoki to'liq qoplashi kerak. Har holda sug'urta mexanizmi haqidagi tushunchamiz shunday.

Ammo amalda bu tizim qanchalik ishlayapti? Nega hamon yo'l-transport hodisalaridan keyin sug'urta tovonini undirish asosiy muammoga aylanadi? Garchi majburiy avtosug'urta shartnomasiga ega bo'lsak-da, kompaniya zararni qanchalik qoplab berishi katta so'roq ostida qoladi. Shu jihatdan odamlarda majburiy avtosug'urta zarurati, qonunchilik talablariga qanchalik mosligi, ixtiyoriy sug'urtadan farqli jihatlari bilan bog'liq savollar ko'p paydo bo'ladi. Vaholanki, avtomobil egalari har gal belgilangan muddatda yangilab turlidigan majburiy avtosug'urtadan amalda foydalanishni istaydi va qonuniy jihatdan bunga to'la haqli.



Mamlakatimizda sug'urta faoliyati tegishli qonun bilan tartibga solinadi. Qonunchilikka ko'ra ushbu tizim yuridik va jismoniy shaxslarning fuqarolik faoliyatini sug'urta qilish, ya'ni sug'urta hodisasi yuz bergan vaqtda jabrlanuvchining mol-mulki, hayoti yoki unga boshqa xavf-xatarlarda yetkazilishi mumkin bo'lgan zararni to'lab berishni anglatadi, — deydi Yuridik kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti Pedagoglar markazi mudiri, yuridik fanlar bo'limi falsafa doktori Zafarjon Rahmonov. — Sug'urta odatda ixtiyoriy va majburiy ko'rinishda bo'ladi. Avtosug'urta misolida olsak, ixtiyoriy sug'urta orqali fuqarolar o'z avtomotlashini turli xavf-xatarlardan himoya qiladi. Majburiy sug'urta esa transport vositasi egasining fuqarolik javobgarligini sug'urta qiladi. Ya'ni davlat majburiy sug'urta orqali fuqarolarni moliyaviy xavfdan himoya qiladi va haydovchi boshqa shaxsga zarar yetkazsa, ushbu zararni sug'urta kompaniyasi qoplab beradi.

Gap shundaki, ba'zi fuqarolar bironing avtomobiliga zarar yetkazsa, to'lov qobiliyati bo'lmagan hollarda qator ovoragarchiliklar kelib chiqadi. Natijada jabrlanuvchining uzoq sud jarayonlari, ijro ishlari bilan o'vora bo'lishiga

zamonaviy mexanizmlarni qo'llash, elektron ariza berish tizimini rivojlantirish bo'yicha ishlar bajarilayotib. Bu orqali fuqarolarning huquqiy bilimi ham oshib boradi. Shundaygina odamlar sug'urtaga ixtiyoriy ravishda ehtiyoj sezga boshlaydi.

### To'lov qanday hollarda red etiladi?

Yaqinda bir tanishim yo'l-transport hodisasi uchragani, avtomobilning orqasidan bir mashina kelib urgani haqida aytib qoldi. Albatta, hodisa atay sodir etilmagan. Voqea joyiga tegishli organlar vakillari yetib kelgan. Zarar yetkazgan kishi aybini tan olgan, ammo hozircha imkoniyati yo'qligi sabab zararni qoplab berolmasligini, jabrlanuvchi sug'urta kompaniyasiga bildirgan. Ma'lumki, sud jarayoni uzoq davom etadi, mashinaga yetkazilgan zararni esa qoplash kerak.

Shunda tegishli tashkilotlar vakillari ikkala haydovchidan avtosug'urta shartnomasi bor-yo'qligi, muddati tugagan-tugaganiga haqida so'ragan. Ularning har ikkisi sug'urta shartnomasi bo'lgani sababli tovon pulini olish uchun ariza topshirilishi kerakligi tushuntirildi. Avvaliga ikki tomon bundan qvonib, tovon puli qisqa muddatda undirib berilishiga ishongan. Ammo keyin sug'urta kompaniyasi tovon pulini to'lamaulik bo'yicha qaror chiqarishi mumkinligi, bu ham ortiqcha ovoragarchilik talab qilishini eshitib, hafsalasi pir bo'lgan.

Haqiqatan, bizda sug'urta pulini olish jarayonida qog'ozbozlik ko'pligi aytiladi. Ba'zilar unga ketadigan vaqt, yugur-yugur sabab o'z pulini chiqib ketadi. Ayrim sug'urta kompaniyalari belgilangan pulni bermaslikka turli vajlar keltiradigan holatlar haqida ham eshitamiz. Ammo bu qonunchilikka qanchalik to'g'ri keladi? Umuman, avtomobil uchun sug'urta badali to'lanar ekan, kerakli vaqtda undan foydalanish haydovchining qonuniy haqqi emasmi?

Aslida, sug'urtadan ko'zlangan maqsad jabrlanuvchiga yetkazilgan zararni qoplab berishga qaratilgan, — deydi Zafarjon Rahmonov. — Ammo sug'urta kompaniyasi tegishli tartibda ariza topshirilganidan so'ng holatini o'rganib,

sug'urta hodisasi yuz bergan deb topganidan keyingina zararni qoplab beradi. Shunda ham kompaniya yetkazilgan zarar ko'lami qarab, qonunchilikda belgilangan summadan oshib ketmagan holda to'laydi. To'g'ri, bunda to'lov juda katta bo'lmasligi mumkin, ammo zararni muayyan qismini, ba'zan to'liq qoplaydi.

Sug'urta tovon pulini olishning tartibi bor. Transport hodisasi yuz bergan vaqtdan boshlab fuqarolar 72 soat ichida sug'urta kompaniyasiga yozma yoki elektron tarzda ariza orqali xabar berishi kerak. Sug'urta tashkilotiga aloqaga chiqish imkoni bo'lmagan vaqtlar uzli deb topiladi, ammo elektron ariza yuborilgan vaqt huquqiy asos hisoblanadi. Ko'rsatilgan vaqt oraliq'ida sug'urta tashkilotining ish kuniga to'g'ri kelmasligi holati esa bundan mustasno.

Ikkinchi talab shuki, transport hodisasi sodir bo'lgani haqida yo'l harakati xavfsizligi organiga xabar berilishi kerak. Hodisa joyida dalolatnoma rasmiylashtiriladi. So'ng transport vositasiga yetkazilgan zararni o'sha joyning zida baholash kerak. Ana shu hujjatlar ilova qilingan holda sug'urta kompaniyasiga ariza beriladi.

Tartibga ko'ra, sug'urtalovchi tashkilot arizani 15 ish kunida ko'rib chiqib, javob berishi kerak. Agar sug'urta hodisasi tasdiqlansa, qaror qabul qilinganidan so'ng 5 ish kuni ichida tovon puli to'lanishi shart. Muddatni kechiktirish noqonuniy hisoblanadi.

Ariza topshirilgach, sug'urta kompaniyasi haqiqatan baxtsiz hodisa bo'lgani va boshqa jihatlarni o'rganidan keyingina tovon pulini to'lab berishi kerak. Hodisa joyida dalolatnoma rasmiylashtiriladi. So'ng transport vositasiga yetkazilgan zararni o'sha joyning zida baholash kerak. Ana shu hujjatlar ilova qilingan holda sug'urta kompaniyasiga ariza beriladi. Tartibga ko'ra, sug'urtalovchi tashkilot arizani 15 ish kunida ko'rib chiqib, javob berishi kerak. Agar sug'urta hodisasi tasdiqlansa, qaror qabul qilinganidan so'ng 5 ish kuni ichida tovon puli to'lanishi shart. Muddatni kechiktirish noqonuniy hisoblanadi.

Ariza topshirilgach, sug'urta kompaniyasi haqiqatan baxtsiz hodisa bo'lgani va boshqa jihatlarni o'rganidan keyingina tovon pulini to'lab berishi kerak. Hodisa joyida dalolatnoma rasmiylashtiriladi. So'ng transport vositasiga yetkazilgan zararni o'sha joyning zida baholash kerak. Ana shu hujjatlar ilova qilingan holda sug'urta kompaniyasiga ariza beriladi. Tartibga ko'ra, sug'urtalovchi tashkilot arizani 15 ish kunida ko'rib chiqib, javob berishi kerak. Agar sug'urta hodisasi tasdiqlansa, qaror qabul qilinganidan so'ng 5 ish kuni ichida tovon puli to'lanishi shart. Muddatni kechiktirish noqonuniy hisoblanadi.

Yana bir jihati, sug'urta tovon puli avtomobil bilan sodir bo'ladigan tasodifiy baxtsiz hodisalarga ham to'lab berilishi mumkin. Bunday holatlarda ham sug'urta kompaniyasiga ariza bilan murojaat qilinadi. Masalan, mashina ustiga daraxt ag'anan ketsa yoki avtomobil egasi yo'l nosozligi yoki boshqa ikkilamchi omillar sabab ulovni biror joyga urib olsa, tovon puli undirishi mumkin. Faqat fuqarolar chindan baxtsiz hodisa sodir bo'lganini isbotlab berishi kerak. Bunda voqea joyiga YPX xodimlari yoki profilaktika inspektorlari chaqirish yoxud kamera yozuvi orqali olingan dalillarni taqdim etishi zarur. Shundan keyin jarayonni sug'urta kompaniyasi o'rganadi, mashinaning texnik jihatdan sozligini tekshiradi. Agar haqiqatan avtomobilning o'ziga bog'liq bo'lmagan holda baxtsiz hodisa yuz bergan deb topilsa, yetkazilgan zarar sug'urta assosida belgilangan tartibda qoplab beriladi.

Gap faqat sug'urta pulini to'ladikmi, tovon pulini ham, albatta, undirishimiz kerakligida emas. Gap ushbu amaliyot haqiqatan ishlashi, barcha tomon manfaati hamda belgilangan vazifaga xizmat qilishida. Ya'ni sug'urta shunchaki keraksiz yoki majburiy to'lov emas, balki amaldagi ishonch, huquqiy kafolat belgisiga aylanishi kerak. Sohani rivojlantirish harakatlari esa ayni maqsadlarga xizmat qilishi lozim.

**Iroda TOSHMATOVA,**  
"Yangi O'zbekiston" muxbiri



## Innovatsiya



Mamlakatimiz qishloq xo'jaligi tarmoqlarida paxtachilik salmoqli o'rin egallaydi. Hosil mo'la bo'lishi katta iqtisodiy o'sish, ishlab chiqarish uchun muhim xomashyo bazasi mustahkamligini ta'minlaydi, albatta. Keyingi yillarda sohani yanada rivojlantirish, ishlab chiqarish samaradorligini oshirish maqsadida innovatsion agrotexnologiyalarni amaliyotga joriy etish maqsadida hayotga tatbiq etilayotgan loyihalar soha rivojini yangi bosqichga olib chiqdi, dehqonlar manfaatdorligini oshirdi.



# HOSILDOR NAV VA USUL MUSHTARAKLIGI



Prezidentimizning 2025-yil 9-dekabrda "Paxtachilik va g'allachilikda hosildorlikni oshirish uchun yuqori samarador intensiv agrotexnologiyalarni qo'llashning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori bor borada yangi imkoniyatlar eshigini ochdi. Endi zamonaviy intensiv agrotexnologiyalarni qo'llash orqali paxtachilikda hosildorlikni gektariga 50 sentnerdan oshirish, paxta yetishtiriladigan maydonlarda to'liq yakkaqator va qo'shqator usulda chigit ekilishini tashkil etish, ilm-fan yutuqlarini amaliyotga joriy etish ko'lami yanada kengaygan.

Xorij g'o'za navlarini mahalliy sharoitda yangicha usullarda ekish hosildorlikni sezilarli oshirish bilan birga mahsulotni yig'ib-terib olishda paxta terish mashinalaridan foydalanish imkoniyatini ko'paytirdi.

O'tagan yili Farg'ona viloyatida 72 ming gektar yerda g'o'za parvarishlangan. Shundan 24 ming gektar maydonga Xitoydan keltirilgan "Xin Lu Zao-78", "Xin lu zhong-52", "Xin Lu Zao-57", "Xin lu zhong-87" g'o'za navlari hamda 10,3 ming gektarga "Shinjon-Uyg'ur" texnologiyasi asosida tegishli qo'shqator sxemada, plyonka ostiga

chigit ekilib, parvarish qilindi. Natijada o'rta hosildorlik 45 sentnerdan oshib, yalpi xirmon salmog'i 323 ming 871 tonnani tashkil etdi. Bu yo'nalishda yuqori intensiv agrotexnologiyalarni qo'llagan 73 ta fermer xo'jaligi paxtadan 60 sentnerdan, 142 fermer xo'jaligi 55 sentnerdan va 464 tasi esa 50 sentnerdan ortiq hosil yetishtirib, yuqori daromad olishga erishdi. Bu qiyoslarni birgina 2024-yildagi holat bilan solishtirsa, hosildorlik salmog'i 10-15 foiz oshib ketganini anglash mumkin.

Hosildorlikning bir jihati yangi navlarning kirib kelishi bilan bog'liq. Ammo yutuqlarning asl siri to'liq bunda emas, — deydi Qishloq xo'jaligida bilim va innovatsiyalar milliy markazi huzuridagi Farg'ona viloyati agroxizmatlar markazi direktori o'rinbosari Omadillo Rahimov. — Bosh sababi ko'chatlar oraliq'ida tegishli yangi texnologiyani qo'llanishi, ko'sak qurti hamda begona o'tlarning bartaraf etilishida. Shu o'rinda "Shinjon-Uyg'ur" paxta yetishtirish usuli muhimligini aytish joiz. Bunda bir gektarda 220-240 ming tup ko'chat parvarishlanib, bir qancha afzalliklarga ega. Birinchidan, 66x10 santimetrli qo'shqator usulida plyonka ostiga pnevmatik seyalka bilan donalab chigit ekiladi. Shuning hisobiga har gektarda 20-30 kilogramm urug'lik chigit iqtisod qilinadi, aniq uyulab ekilgani boisi, yagana qilinmaydi. Plyonka to'shamasi germetik

yopilgani uchun begona o't bosmaydi, chiqib qilishiga ham ehtiyoj qolmaydi. Yemi chuqur yumshatish, qator orasini 7-8 marta kultivatsiya qilish tadbirlari o'tkazilmasligi hisobiga texnika, yonilg'i-moylash va qo'l mehnati uchun sarflanadigan mablag' tejab qolinadi. Tomchilab sug'urish hisobiga 35-40 foiz suv, 30-40 foiz mineral o'g'it tejaladi. Ochiq maydonga ekilgan paxtaga nisbatan kunlik kerakli harorat 2-3 daraja ko'prog' olinadi va paxta 10-15 kun erta pishib yetiladi. Bu esa kuzning yomg'irli kunlariga qolmay, hosilni yuqori navlarda sotish imkonini beradi. Plyonka ostiga chigit ekilgan maydonlarda tuproq zichlashmasdan doimiy yumshoq holda bo'lishi, yuqori harorat va namlik yetarli darajada saqlanib turishi evaziga g'o'zaning ildiz tizimi yaxshi o'sib rivojlanadi. Berilgan mineral o'g'itlar samarali ta'sir qiladi, ekin sog'lom va baravj rivojlanadi. Bu ochiq maydonga nisbatan 10-15 kun erta va 15-20 sentner yuqori hosil olish imkonini beradi.

Rishton tumanidagi "Paxtakor Iqror" fermer xo'jaligi ham bu usul afzalliklari, iqtisodiy samaradorligidan foydalanish borasida tajriba oshirib kelyapti. Fermer xo'jaligi yerlarida tajribasizov maydoni tashkil etildi. O'tagan mavsumda beshta xorijiy (Xitoy) va to'rtta mahalliy g'o'za navi chigiti bir maydonga aprelning oxirida gektariga 500 kilogrammdan ammofos va 100



kilogrammdan kaliyli o'g'it qo'shib "Shinjon-Uyg'ur" tajribasi asosida parvarishlandi. So'ng hosildorlik tahlil qilindi. Natijada Xitoy navlari bilan birga mahalliy ("S-8290", "Ravnaq-2", "S-6775", "Namangan-77") navlardan ham 54-58 sentnerdan hosil olindi. Lekin Bt va Gt genli xorijiy navlar ko'sak qurti hamda gerbitsida chidamli bo'lishi hisobiga ko'chatlarda hosilni saqlab qolish imkoniyati yuqoriligi ma'lum bo'ldi. Aniqliq aytilsa, mahalliy navlarda kasallikka chidamlilik darajasi yuqori emas. Chiqip, ildiz atrofi yumshatish singari agrotexnik tadbirlarni talab qilindi.

Dastlab bu texnologiyani joriy etishni ortiqcha sarf-xarajat, ovoragarchilik deb o'ylaganmiz, — deydi fermer xo'jaligi rahbari

Mirzaahmad O'Imasov. — Bu borada ko'chatning poyasi qalinligi ham muhim ekanini tushunib yetdik. Yutug'imiz shunda, desam, to'g'ri bo'ladi. Gektariga 240 mingta chigit ekib, yagana qilmay, chopiqsiz barcha ko'chatni va ko'sakni saqlab qolish mumkin. An'anaviy usulda parvarishlash uchun chigitni qalin eksak, ko'sak qurti yig'ib qo'yadi. Chopiq qilmasak, begona o't bosib, ko'chatlar soni sezilarli kamayadi. Zararli hasharotlarga qarshi bir necha bor kimyoviy ishlov berish atrof-muhitga zarar yetkazish bilan birga xomashyo tanmarxi qimmatlashib ketishiga sabab bo'ladi. Olti-yetti yil ilgari paxta hosildorligi 25-27 sentnerni tashkil etgan. Hozir bu raqam 50-60 sentnerga yetdi.

Paxtachilik mexanizatsiyalashdi, fermerlarning texnika parki yangilandi boryapti. Shu kunga qadar viloyatga 1137 ta yuqori unumli haydov, lazerli yer tekislagich, chigit ekish seyalkasi, chopiq kultivatorlari, don o'rish va 200 dan ortiq paxta terish texnikasi sotib olingani qo'l mehnatni kamaytiradi, ish unumdorligini oshirdi. Hisob-kitoblarga ko'ra, sohaga yangi texnika va texnologiyalar joriy etilishi hisobiga o'tgan mavsumda hosilning qariyb 60 foizi yuqori unumli terim mashinalari yordamida yig'ib olindi.

Qishloq xo'jaligi imkoniyatlarga boy soha. Bazzolarimiz fayzu barakasi, bazurxonimiz ko'rkli, hayotimizning farovonligi ko'p jihattan shu tarmoqqa bog'liq. Shuning uchun paxta-g'allachilik yo'nalishida faoliyat yuritayotgan fermer xo'jaliklari rahbarlari uchun sohadagi dolzarb muammolarni muhokama qilish, zamonaviy ilmiy yondashuvlar va ilg'or tajribalarni ommalashtirishga qaratilgan o'quv-senarlar tashkil etganmiz, — deydi viloyat agroxizmatlar markazi direktori, paxtachilik kengashi huzuridagi Farg'ona viloyati ishchi guruhi rahbari Ravshanbek Qurbonov. — Unda olimlar va mutaxassislar yer unumdorligini oshirish, suv tejovchi texnologiyalardan samarali foydalanish, yuqori hosilli navlarni tanlash, agrotexnik tadbirlarni o'z vaqtida va sifatli amalga oshirish masalalari bo'yicha atroflicha tushuncha va tavsiyalar beradi. Muhimi, fermerlarimizning paxta yetishtirishda yangi texnologiya va innovatsiyalarni qo'llash istagi yuqori.

Qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirishda ilmiy yondashish yangi nav, texnologiyalarni joriy etish xomashyo yetishtirishni ko'paytirish bilan birga qo'shilgan qiymat zanjirini yaratish, yangi ish o'rnlari oshirish, qo'l mehnatini kamaytirishga xizmat qilayotir.

**Rasuljon KAMOLOV,**  
"Yangi O'zbekiston" muxbiri



Har qanday davlatning ertangi qiyofasi, avvalo, uning yoshlari qanday bilim va kasb egallayotgani, qanday tarbiya topayotgani, qay darajada yurt taqdiriga daxldorlik hissi bilan yashayotganida namoyon bo'ladi. Shu ma'noda, yangi O'zbekistonda taraqqiyotning eng muhim tayanchlaridan biri sifatida yoshlarga e'tibor qaratilayotgani bejiz emas. Zero, ular nafaqat demografik jihatdan katta qatlam, balki mamlakatning intellektual salohiyati, yangilanish sur'ati va ijtimoiy-iqtisodiy yuksalishini belgilab beradigan hal qiluvchi kuchdir.



Yuksalish pallası

YOSHLAR UCHUN BIM —

IMKONIYAT, TARBIYA — MAS'ULIYAT



Naim O'BLOMURODOV, tarix fanlari doktori, professor

Yoshlarga oid davlat siyosati yurtimizda so'nggi yillarda alohida bir ijtimoiy yo'nalishdan strategik taraqqiyot masalasi darajasiga ko'tarildi. "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida"gi qonunda davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari, yoshlarni qo'llab-quvvatlash tamoyillari va ularning huquqiy kafolatlari aniq belgilab berildi. Prezidentimizning yoshlar bilan uchrashuv va muloqotlarida esa doimo ta'lim-tarbiya, bandlik, tadbirkorlik, ijtimoiy himoya, ma'naviyat, vatanparvarlik masalalari ustuvor vazifa sifatida tilga olinadi. Xususan, shu yilning 24-fevral kuni bo'lib o'tgan uchrashuvda yoshlar uchun imkoniyatlarni yanada kengaytirish, ularning ta'lim olishi, kasb o'rganishi, ish topishi, tadbirkorlik va innovatsion faoliyat bilan shug'ullanishida yangi mexanizmlarni joriy etish zarurligini ta'kidlandi.

Ushbu muloqotda davlatimiz rahbari ilgari surgan tashabbuslar esa bu sohada qo'llanilgan yanada yuqori bosqichga olib chiqildi. Uchrashuvda

32 ta muhim tashabbus ilgari surilib, ular orasida yoshlar tadbirkorligi va startaplarni moliyaviy qo'llab-quvvatlash alohida o'rinni egalladi. Xususan, yoshlar tadbirkorligi uchun qo'shimcha 200 million dollar ajratilishi belgilandi. Shuningdek, o'zini o'zi band qilgan yoshlar uchun kredit miqdori 100 million so'mdan 300 million so'mgacha oshirilishi, yosh tadbirkorlar loyihalari uchun esa 10 milliard so'mgacha kredit ajratilishi ma'lum qilindi.

Eng muhimi, qo'llab-quvvatlash faqat kredit berish bilan cheklanmayapti. Ta'kidlanishicha, innovatsion startap loyihalarga 100 ming dollargacha investitsiya kiritishga ruxsat etiladi, har bir hududda yoshlarga biznes xizmatlari ko'rsatuvchi "Yoshlar biznes inkubatori" ishga tushiriladi, banklar tomonidan 50 ming yoshga bepul biznes-reja tayyorlab beriladi. Shuningdek, 20 ming yoshni tadbirkorlikka o'qitish rejalashtirilgan. Demak, bu yondashuv yoshlarni faqat qarz oluvchi sifatida emas, balki o'z g'oyasini shakllantirish, rejalashtirish, boshqarish va bozorga olib chiqish bosqichlarida kuzatib boriladigan to'laqonli tadbirkor sifatida ko'rishga asoslanmoqda.

Yoshlar kamoloti haqida so'z borganda, avvalo, ta'lim va tarbiya masalasi birinchi o'ringa chiqadi. Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotiga qaraganda, 2024-2025-o'quv yili boshida 18-23 yoshli aholini oliy ta'lim bilan qamrab olish ko'rsatkichi 2014-yildagiga nisbatan 40,9 foiz oshib, 47,7 foizni tashkil etgan. Bu yurtimizda oliy ta'lim ommalashib, yoshlar uchun yanada ochiq va qulay maydonga aylanayotganini ko'rsatadi.

Yurtimizda yoshlarning ish topishi, kasb egallashi, o'zini o'zi band qilishi va tadbirkorlik bilan shug'ullanishi uchun barcha huquqiy va tashkiliy mexanizmlar yaratilgan. Ayniqsa, yoshlar

tadbirkorlikka jalb qilinishi va kurslar xarajatlarini qoplash tartiblari ham aniq belgilangan.

Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 17-apreldagi "Yoshlarni kasbga (mutaxassislikka) va chet

boshlash istagida bo'lgan 384,4 ming yoshni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan "Yoshlar bandligi dasturi" qabul qilinib, 354,1 ming yoshning bandligi ta'minlangan. Shu xabarda ishsiz 115,8 ming yoshga rahbarlar birlashtirilgan va ularning 114,9 ming nafari ish bilan ta'minlangani ham qayd etilgan. Bu raqamlar yoshlar bandligi bo'yicha manzilli ishlab chiqarilgan amaliyotni muayyan samara berayotganidan darak.

Yoshlar tadbirkorligini moliyaviy jihatdan qo'llab-quvvatlashga doir byudjet mexanizmlari ham mavjud. 2025-yil uchun davlat byudjetida Yoshlar tadbirkorligini rivojlantirish davlat maqsadli jamg'armasi bo'yicha alohida ko'rsatkichlar belgilangan edi. 2026-yil uchun davlat byudjeti to'g'risidagi qonunda ham mazkur yo'nalish saqlanib qolgan. Unda Yoshlar tadbirkorligini rivojlantirish davlat maqsadli jamg'armasining yil boshiga kutilgan qoldiq'i 548,4 milliard so'm, 2026-yil uchun daromadlar prognozi esa 151,4 milliard so'm etib belgilangan.

"Yangi avlod tadbirkorlari" dasturi doirasida kamida 40 ming yoshni biznesga o'rgatish, eng yaxshi 1 ming yoshning loyihasi 3 yil muddatga 200 million so'mgacha 7 foizli ssuda berish rejalashtirilgan. Bu yondashuv startap ekotizimida g'oyadan to'laqonli natijaga bo'lgan butun zanjirni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan bilan ahamiyatli.

O'zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosatida ijtimoiy himoya ham alohida o'rinni tutadi. Bu yo'nalishning asosiy maqsadi hayotda qiyinchilikka duch kelgan, ishsiz, daromadli past yoki qo'shimcha yordamga muhtoj yoshlarni aniqlash, muammolarini manzilli hal etish va



bandligini manzilli ta'minlashga qaratilgan yondashuv ancha kuchaydi. Yoshlarning muammolarini mahalla kesimida o'rganish, ularni ishga joylashtirish yoki kasbga yo'naltirish, ehtiyojmand qatlarni "Yoshlar daftari" orqali qo'llab-quvvatlash kabi mexanizmlar shu maqsadga xizmat qilmoqda. "Yoshlar daftari"ni yuritish bo'yicha amaldagi tartibda ularni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash bilan birga kasb-hunarga o'qitilishi,

tillariga o'qitish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorida kasbiy ta'lim tashkilotlarida yoshlarni kasb-mutaxassislik va chet tillarga o'qitish bo'yicha o'quv kurslari tashkil etish vazifasi belgilab berilgan. 2025-yil 22-aprelda ushbu hujjatga o'zgartirish kiritilib, ish mexanizmlari yanada aniqlashtirildi.

Yoshlar ishlari agentligining 2025-yil yakunlari bo'yicha axborotiga ko'ra, ishsiz va biznesini

MAQSAD — SIFATLI TA'LIM BERISH



Kamolot pillapoyasi

Davlatimiz rahbarining yoshlar bilan o'tkazgan ochiq va samimiy muloqoti ta'lim, ayniqsa, oliy ta'lim muassasalari faoliyati uchun muhim dasturialamal bo'lib xizmat qilmoqda. So'nggi yillarda yoshlarning bilim olishi, ilm-fan bilan shug'ullanishi va salohiyatini namoyon qilishi uchun barcha shart-sharoit yaratilyapti. Jumladan, oliy ta'lim muassasalari soni keskin oshdi. Sohaga xususiy sektor kirib keldi, xorijiy universitetlar filiallari ochildi. Bu yoshlarning sifatli ta'lim olish imkoniyatini yanada kengaytirdi.



Berdiyor JOLIBEKOV, Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti rektori, qishloq xo'jaligi fanlari doktori, professor

Yosh olimlarni qo'llab-quvvatlash, ilmiy tadqiqotlarni rag'batlantirish va innovatsion g'oyalarni amaliyotga joriy etishga katta e'tibor berildi. Bugun ilmiy grantlar, startap loyihalari, yosh tadqiqotchilari uchun maxsus dasturlar joriy qilinayapti. Shu orqali yoshlarning ilm-fanga qiziqishi yanada kuchaymoqda.

Mamlakatimiz yetakchisining yoshlar bilan muloqotida ta'lim sifatini oshirish, xorijiy tillarni o'rganish, raqamli texnologiyalarni o'zlashtirish va kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish kabi masalalar ham alohida e'tibor markazida bo'ldi. Bu vazifalar, ayniqsa, oliy ta'lim muassasalari zimmasiga katta mas'uliyat yuklaydi.

Yoshlarning ta'lim olishi, til o'rganishi, kasb egallashi va innovatsion g'oyalarni ro'yogga chiqarishi uchun yaratilayotgan imkoniyatlar barcha oliy o'quv yurtlaridan mutlaqo yangi yondashuvni talab etadi. Shundan kelib chiqib, Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universitetining 18 ta fakulteti, 58 ta kafedrasida yoshlar bilan ishlashning manzilli tizimi joriy qilinadi. Talaba yoshlarning bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tkazish uchun to'garaklar bilan ishlash bo'yicha platforma tashkil etiladi. Unga 8 ming talabani qamrab olish rejalashtirilgan. Iqtidorli yoshlar va yosh olimlarning startap va innovatsion g'oyalarni amalga oshirishga qaratilgan tadqiqot ishlarni hamda loyihalari soni jami loyiha, ishlarni hajmiga nisbatan 30 foizgacha oshiriladi.

Shuningdek, universitetda 40 yoshgacha bo'lgan, ilmiy daraja va unvonga ega, istiqbolli professor-

o'qituvchilar, ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlar, yuqori salohiyatli yosh olimlarni jami professor-o'qituvchilar soniga nisbatan 400 nafargacha yetkazish maqsad qilingan. Har bir talaba universitetda nafaqat bilim olishi, balki o'z kelajagini aniq belgilashi uchun barcha sharoitlar yaratiladi.

Prezidentimiz ta'kidlaganidek, ta'limga yangi metodika va innovatsiyalarni joriy etgan rahbar faoliyatida chinakam o'zgarish ro'y beradi. Shu asosda universitetda 2026/2027-o'quv yilidan dual ta'lim dasturini joriy etish bo'yicha Ustyurt gaz qazib chiqarish boshqarmasi, "Qo'ng'iro't soda zavodi" mas'uliyati cheklangan jamiyati bilan birgalikda 100 ta talaba qabul qilish rejalashtirilgan.

Shu bilan birga, chet tillarni o'qitishni yangi formatda tashkil etish, har bir bitiruvchi kamida bitta kasbiy ko'nikma va bitta chet tili amaliy darajada bilishi asosiy maqsad etib belgilanadi. Shuningdek, chet tillarni biladigan 160 nafar mentor talaba yoshni qayta tayyorlab, ular yozgi ta'lim vaqtlarida mahalla yoshlariga chet tillarni o'rgatishi uchun qisqa kurslar tashkil etiladi.

Chet tili bo'yicha milliy yoki xalqaro tan olingan B2 hamda C1 darajadagi sertifikatlarni olish ko'rsatkichini ham talabalar, ham professor-

o'qituvchilar orasida keskin oshirish belgilangan. "Besh million sun'iy intellekt yetakchilari" loyihasi bo'yicha universitetning 1000 nafar professor-o'qituvchisi va 17 ming nafar talabasi omp.aistudy.uz platformasida o'qitiladi.

Yoshlar tadbirkorligini qo'llab-quvvatlash borasidagi yangi moliyaviy mexanizmlar universitetlar uchun ham katta imkoniyatlar eshigini ochadi. Shu bois, talabalarning startap g'oyalarni biznes loyihaga aylantirish bo'yicha mentorlik tizimi yo'lga qo'yilib, investorlar va tadbirkorlar ishtirokida startap forumlari o'tkaziladi. "Kelajakka qadam" dasturi asosida joriy yilda 3987 bitiruvchining kamida 20 foizi kredit olishiga ko'maklashish reja qilingan. Talabalarning eng yaxshi loyihalarni mahalliy ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohaslariga joriy etishga alohida e'tibor qaratiladi.

Axborot xurujlari kuchli bo'lgan ayni davrda yoshlarning ma'naviy immunitetini mustahkamlash dolzarb vazifadir. Shu sabab kitobxonlik harakati yangi bosqichga olib chiqiladi. Buning uchun joriy yilda bir vaqtning o'zida 300 dan ortiq kitobxon sig'adigan zamonaviy tipdagi kutubxona qurish reja qilingan.

Qolaversa, 2026-yilda professor-o'qituvchilarning o'zbek va qoraqalpoq tillarida 276 nomdagi yangi avlod o'quv adabiyotlari yaratiladi. Ular chop etilib, o'quvchilar qo'lga yetib boradi.

Davlatimiz rahbari belgilab bergan vazifalar nafaqat yangi imkoniyatlar, balki har birimiz uchun yuksal mas'uliyat hamdir. Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti jamoasi ushbu vazifalarni amalga oshirishda faol ishtirok etib, yoshlarimizning ilm-fan, innovatsiya, tadbirkorlik va ma'naviyat sohaslarida yetakchi avlod bo'lib kamol topishi uchun bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etadi.

Prezidentimizning 2025-yil 24-dekabrda "2026-2030-yillarga mo'ljallangan bolalarni zo'rvonlikning barcha shakllaridan himoya qilish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi farmoniga ko'ra, joriy yilning 1-fevralidan zo'rvonlikka uchragan va zo'rvonlik xavfi ostida turgan bolalar uchun professional tutingan oila xizmati joriy etildi. Bu shunchaki himoyaga muhtoj bolalarni uyga qabul qilish emas, balki zo'rvonlikdan jabrlangan yoki shunday xavf ostida bo'lgan bolalar bilan ishlovchi, maxsus tayyorgarlikdan o'tgan professional tutingan oilaviy g'amxo'rlik shaklidir.

PROFESSIONAL TUTINGAN OILA



Inson qadri uchun

Bunday oilalar oddiy vasiylardan farqli o'laroq, maxsus tayyorlov kurslarida o'qitilmoqda. Unda ota-onalarga stress, depressiya va qo'rquv iskanjasi bog'liq bolalar bilan qanday terapevtik muloqot qilish, ularning ruhiyatidagi salbiy kechinmalarni neytrallashtirish kabi kasbiy ko'nikmalar o'rgatilyapti.

Ushbu xizmatda ota-ona o'zini nafaqat g'amxo'r inson, balki mutaxassis sifatida tutadi, — deydi Ijtimoiy himoya milliy agentligining Og'ir hayotiy vaziyatdagi bolalarga ijtimoiy xizmatlarni rivojlantirish boshqarmasi bosh mutaxassisi Dilnoza Husanova. — Ularning kundalik har bir harakati va so'zi bolaga nisbatan terapevtik muolaja elementlarini o'z ichiga olishi kerak.

Professional tutingan oilaning asosiy vazifalari bolani ruhiy tushkunlikdan chiqarish

va agressiv holatlarini yumshatish, bolaga oilaviy muhitda hayotiy hamda maishiy ko'nikmalarni o'rgatishdir. Shuningdek, bolaning xavfsiz ta'lim olishi va tibbiy xizmatlardan foydalanishini ta'minlash ham oilaning asosiy vazifalaridan biri sanaladi.

Mutaxassisning ta'kidlashicha, professional tutingan oila bolani doimiy asrab olish degani emas. Bu vaqinchalik va maqsadli jarayon bo'lib, bola oilada bo'lgan davrda ijtimoiy xodimlar uning biologik ota-onasi bilan ham ishlashadi. Agar biologik ota-onaning farzandiga g'amxo'rlik qishloq salohiyati tiklansa, bola o'z oilasiga qaytariladi. Ota-ona xulqi va munosabati o'zgaragan, bolani oilaga qaytarish xavfli deb topilsa, bola boshqa muqobil shakllarga (vasiylik yoki homiylik, farzandlikka berish) yo'naltiriladi.

Professional tutingan oila xizmatining boshqa muqobil parvarish shakllari (vasiylik, homiylik, patronat yoki oilaviy bolalar uylari)dan farqi terapevtik yondashuv va kasbiy majburiyatidir, — deydi Dilnoza Husanova. — Vasiylik, homiylik yoki oilaviy bolalar uylarining asosiy vazifasi bolani tarbiyalash, parvarishlash va uning xavfsizligini ta'minlashdan iborat bo'lsa, professional tutingan oilalardan bolani stress va ruhiy tushkunlikdan chiqarish talab etiladi. Shu

bilan birga, professional tutingan oila "Inson" ijtimoiy xizmatlar markazi hamkori sifatida g'amxo'rlikdagi bolaning boshqora ehtiyojlari ta'minlanishi uchun qo'shimcha resurslarni jalb etadi.

Ayni kunlarda professional tutingan ota-onalikka nomzodlarni maxsus dastur bo'yicha o'qitish ishlari olib borilmoqda. Professional tutingan ota-onalar uchun ishlab chiqilgan o'quv dasturi boshqa shakllardan (masalan, farzandlikka oluvchilar uchun 60 soatlik kurslardan) sezilarli darajada farq qiladi. Unda asosan stress, depressiya, qo'rquv va agressiv holatdagi bolalar bilan ishlash bo'yicha maxsus kasbiy ko'nikmalar o'rgatiladi.

Tizimda bolaning subyektiv holati va xotishlari qaror qabul qilishda ustuvor hisoblanadi. Ayniqsa, 10 yoshdan oshgan bolaning fikri, u o'z oilasiga qaytadimi yoki boshqa joylashtirish shakli tanlanadimi, shunda, albatta, inobatga olinadi. Agar bola o'z biologik ota-onasi tomonidan ko'rilgan zo'rvonlik sababli ularning oldiga qaytishni istamasa, o'zining kelajakdagi hayot andozasini tanlash huquqiga ega va uni majburlanib qaytarish mumkin emas.

Bugungi kunda jismoniy shaxslar tomonidan tashkil etilgan oilaviy bolalar uylari soni ortib bormoqda. 2025-yil boshida 225 ta oilaviy bolalar uyi faoliyat yuritgan bo'lsa, hozir 417 taga yetdi. Bir yil ichida 100 ga yaqin yangi oilaviy bolalar uyi tashkil etilgan jamiyatda bolalarni oilaviy muhitda tarbiyalashga qiziqish ortayotganini ko'rsatadi. Bu ishlarda asosiy e'tibor bolalarni muassasa "devorlari" orasidan chiqarib, tabiiy oilaviy muhitga singdirishga qaratilgan.

Risolat MADIYEVA, "Yangi O'zbekiston" muxbiri





Farovonlik xaritasi

Shodiyor akaning ham boshqalar kabi yoshligida orzulari bisyor edi. Ulg'aygach, universitetda ta'lim olib, yaxshi joyda ishlashni xohlardi. Buning uchun ko'p va xo'b o'qishi kerakligini ustozlari bot-bot ta'kidlardir. Shu bois, mutolaani kanda qilmasdi. Maktabga kelgan gazeta va jurnallarni sinfdoshlaridan oldin o'qib chiqardi. Pochtachi amakini maktab hovlisida birinchi bo'lib Shodiyor kutib olardi. Amaki esa u uchun alohida gazeta-jurnallari olib kelardi. Shodiyorning intilishlarini kuzatgan ustozlari universitet imtihonidan qiynalmay o'tadi deb taxmin qilardi. Afsuski, unday bo'lmadi.

"YANGI O'ZBEKISTON" GAZETASINI O'QIB, TADBIRKOR BO'LDIM



Kishi maqsadiga erishi uchun orzuning o'zi kamil qilardi. Shodiyorning ham oliygohda o'qishga imkoniyati bo'lmadi. Turmush tashvishlariga aralashib qoldi. Oila qurdi. Tayinli ishi ham yo'q edi. Ro'zg'or tebratish oson bo'lmadi. Chorvachilik bilan shug'ullandi. Dehqonchilik qildi. Bir amallab kun kechira boshladi. Shunday bo'lsa-da, yoshligidagi odati — kitob, gazeta o'qishni kanda qilmadi. Farzandlari ham otasiga qiziqib, kitob o'qiydigan bo'ldi. Bir kuni kutilmaganda hayotida yangi qadam tashlashga undaydigan voqea ro'y berdi.

— To'rt-besh yil avval mahallaga yordam so'rab borgandim, — deydi qashshilik Shodiyor Jo'rayev. — Mahallamiz raisi bilan ancha suhbatlashdik. Shunda raisning stolidagi "Yangi O'zbekiston" gazetasi taxlamani e'tiborimni tortdi. Qarasam, qiziqarli maqolalari ko'p ekan. Gazetani uyda o'qib kelsam bo'ladim degandim, mahalla raisi uni qo'limga tutqazdi. Quvonib ketdim. Uyg'a shoshdim. Kelib qolgan gazeta o'qishga tushdim. Bir maqolada menga o'xshagan yigit qulupnay ekib daromad topayotgani haqida yozilgandi. U atigi uch sotixdan yaxshi daromad olayotgan ekan. Hovlidan chiqmay shuncha pul topish... Intilsa erishish mumkin, deya o'yladim. So'ng tomorqamga chiqdim. Kattagina yer bo'sh yotibdi. Nomiga ekan sabzavotimiz ro'zg'orga yetmaydi. O'zimdanda o'zimga uyaldim. Shuncha imkoniyat bor ekan-u, qaylardan ish qidirib yuribman dedim. Shu kuni qo'limga ketmon olib, yer chopishga tushdim. Ikki o'g'limni ham yonimga chaqirdim. Birgalashib kechga qadar ancha joyni chopib chiqdik. Begona o'tlardan tozaladik. Uch kun deganda yer tayyor bo'ldi. Bozordan qulupnay ko'chati olib keldim. Chiroyli qilib ekib chiqdim. So'ng maslahat olish istagida qulupnay bilan shug'ullanayotgan dehqonlarni surishtirdim. Afsuski, o'sha paytlari bu borada vohada yetakchi dehqon yo'q ekan. Toshkentga ketdim. U yerda



tajribali mirishkorlar bilan gaplashib, qulupnay yetishtirish sirlarini o'rgandim. Ancha vaqtgacha yurib, malakaga ega bo'lib qaytdim. Ko'chatni xato tanlagan ekanman. Rivoji yaxshi emasdi. Boshqa ko'chat olib kelib, o'rimga ekdim. Birinchi yili 200 million so'mga yaqin daromad oldim. Demak, harakat qilsa, natija yomon bo'lmaydi degan xulosaga keldim.

Dastlabki urinish samara bergani Shodiyor akani olg'a intilishga undadi. Endi kengroq yerda dehqonchilik qilishni rejaladi. Ammo mahallasi atrofidan bunday yer topa olmadi. Olsiroq bo'lsa-da, Qarshi tumanidagi fermerdan ijaraga yer oldi.



U yerda ikki yil mehnat qilib, yaxshigina daromad topdi.

— Doim gazeta o'qishim foyda beradi. "Yangi O'zbekiston" gazetasi ham yonimga chaqirdim. Bir sonida qulupnayning issiqxonada yetishtirilayotgani haqidagi maqolani o'qidim, — deydi Sh.Jo'rayev. — Shundan so'ng birdaniga to'rt sotix yerga issiqxonaga qurdim. Qiz boshlanishi bilan ichiga ko'chat ekdim. Qishda qulupnay hosilga kirdi. Ayozda narxi ham yaxshigina bo'larkan. Ayniqsa, katta do'konlarda talab yuqori. Kichik idishga qadoqlab, yetkazib berishni boshladim. O'tgan yili ellik million so'mdan ortiq pulga qulupnay sotdik. Mana, ikkinchi yilda har ikki-uch kunda 15-20 kilogramm qulupnay sotamiz. Uning kilosi 180-190 ming so'mdan. Bu oyiga o'rta 30 million, kuniga 1 million so'mdan daromad degani. Xullas, mehnatimiz sabab birovdan kam bo'lmadik. Gohida do'ppi boshdan olib o'ylayman, ilgari ko'z oldimdagi bor imkoniyatni ko'rmay kelgan ekanman. Qo'ni-qo'shnilar buning siri haqida so'rasa, ko'proq gazeta-jurnal o'qish kerak, deyman. Ular buni hazilga oladi. Aslida, shunday desam, ishonishmaydi.

Shodiyor aka bu gaplarga bizni ham ishonmayapti degan xayolga bordi va uyg'a boshladi. Xonadagi kattagina kitob javoniga terib qo'yilgan kitoblarni birma-bir olib ko'rsatdi. Hammasini o'qib chiqqanini aytdi. Xonaning

chetidagi katta stol ustida gazetalar chop etilgan sanasiga qarab, tartib bilan taxlagan. Jurnallari ham bor.

— Yutug'im ham shunda, — deydi u kitob va gazetalarga ishora qilib. — Hozir ko'pchilik ijtimoiy tarmoqlarni kuzatish bilan band. Undagi turfa xabarlar odamni asosiy maqsaddan ko'p chalg'itadi. Shundanmi, gazeta o'qiganim yaxshi, deyman.

O'tgan yili "Yangi O'zbekiston" gazetasi bir maqolada suv tejamliligini haqida o'qidim. Unda yomg'ir suvidan unumli foydalanayotgan dehqon tajribasi haqida so'z borgandi. Shundan so'ng men ham tezda ishga kirishdim. Hovli chetida 200 tonnalik hovuz tayyorladik. Tomidan tushadigan yomg'ir-qor suvlarini quvur orqali shu hovuzga tushadigan qildik. Suv muammasi hal bo'ldi. Ilgari sug'orish ancha mushkul edi. Endi tomchilatish orqali shu suvdan foydalanamiz. Bu ham bir tejamlilik. Yozga qadar bemaol yetadi. Hisoblab ko'rsam, bu eng maqbul yo'l ekan. Masalan, bir chelak suvni ariqdan quysangiz, nari borsa, yarim metrga yetadi. Ammo tomchilatib quysangiz, kamida bir sotix joy sug'oriladi.

Dehqonchilik o'z-o'zidan bo'lmaydi. Uni mukammal o'rganish, o'qib, izlanish kerak. O'z vaqtida suvi, o'g'itini bermasangiz, natijaga erishish qiyin. Yaqinda baliqchilikni ham boshladim. Hovuzga hozir katta baliqlar tashladik. Maqsad — baliqni ko'paytirish. Bahorda tuxum qo'yadi. Chavoqlarini olib, boshqa joyga ko'chiraman. Yomg'ir suvida baliq bo'lmaydi, deyishdi. Laqqa baliqqa namlik yetarli bo'lsa, ko'payishi muammo emas. Muhimi — odam maqsad sari intilsa bo'lgani. Hozir qishloq'imiz



yoshlari dehqonchilik qilishga qiziqish bildirmoqda. Kelib, o'rganib ketmoqda. Ayniqsa, qulupnaychilikni o'rganmoqchi bo'lganlar ko'p. Shu ishini boshlamoqchilarga erinmasdan o'rgataman. Hozirgacha Kitob, Chiroqchi, Koson, Yakkabog' tumanlaridagi ishchiyotqandlarda o'zimga bosh bo'lib qulupnay ekib berdim. Natija yomon emas. Gohida maslahatga chaqirib qolishadi. Ko'rib, ko'zimga qulupnay. Bir oilaga nafim tekkanidan mamnun bo'laman.

Ikki yil olisga qatnab dehqonchilik qilgan Shodiyor akaga endi mahallasi hududidan yer ajratildi. Bu uning uchun katta imkoniyat. Shu sabab tezda ishga kirishdi. Hozirda tomorqasidagi issiqxonadan tashqari 30 sotix maydonga qulupnay, 8 sotixiga sabzi ekkan. O'tgan yili 300 million so'mga yaqin daromad topgan bo'lsa, joriy yil buni 500 million so'mdan oshirishni maqsad qilgan.

Yana bir gap. Bir paytlar ishsiz yurganida tengdoshlari xorijga ishlash taklifini bergandi. Shunda Shodiyor aka "Xorijga faqat sayohat uchun chiqqan, ishlagan emas", deya javob bergan ekan. O'shanda ishi ham, puli ham yo'q odamning bunday orzusi kulgi va mazaxga sabab bo'ldi. Ammo Shodiyor aka parvo qilmadi. Ezgu niyatini o'qib-o'rganishi bilan quvvatladi. Mana, halol mehnati sabab ezgu niyatlariga amalga oshmoqda. O'tgan yili oilasi bilan xorijda dam olib keldi.

Akbar RAHMONOV, "Yangi O'zbekiston" muxbiri



Men kuchliman



Ba'zan taqdirning kutilmagan sinovlari qarshisida o'zimizni ojiz his qilib qolamiz. Shunday damlarda hayotdan nolob, dunyoni adolatsizlikda ayblashga shoshilamiz. Go'yo barcha og'irlik faqat bizning yelkamizga tushayotgandek. Ammo oramizda shunday insonlar borki, imkoniyati cheklanganiga qaramay, qisimatning nogoh tushgan og'ir yukidan sinmaydi. Shukrni shior qilib, irodasini toshdek mustahkamlab, ko'pchilikka ibrat bo'lib yashay oladi.

QALB KO'ZI BILAN KO'RILAYOTGAN DUNYO

Ezgulikka to'la qalbi, sabri, tinimsiz intilishi va mehnati bilan namuna bo'lib yashayotgan bunday insonlarni haqiqiy jasorat sohiblari degimiz keladi.

Buxoro viloyati Qorako'l tumanidagi Mallaishayx mahallasida yashovchi 30 yoshli Shamshoda Hamdamova ana shunday matonat egalaridan. Olamni ko'rish baxtidan erta mosuvo bo'lgan esa-da, qalb ko'zi bilan dunyoni teran anglaydi. Bugun ijob mahsulni, izlanishlari orqali juda ko'p yutuqlarni qo'lga kiritmoqda. Hayotda erishgan muvaffaqiyatlarini sanasak, barmoqlar yetmaydi.

— Men hech qachon nigronman, ojizman degan fikrni ongimga singdirmaganman. Ota-onamning mehrga to'la nihonini, akam va singlimning samimiy tabassumini o'z ko'zlarim bilan ko'rib, voyaga yetdim, — deydi Shamshoda Hamdamova. — Ustozlarimning nurli chehrasiga boqib, ta'lim oldim. Tengdoshlarim bilan qo'l ushlashib, ko'chalarni changitib, quvnoq bolaligimni o'tkazdim. Keyinchalik ko'zim xiralasha boshladi. Bu sinov meni sindirmadi, aksincha, yanada tobladi. Hayotning har bir ne'matiga shukr qilish, bor imkoniyatdan unumli foydalanishni o'rgandim. Qalbmndagi nurni atrofda qilarga ham ulashishga harakat qilib yashay boshladim. Yillar davomida ota-onam ko'z nurimni tiklash ilinjida bormagan shifo maskani, ko'rsatmagan shifokori qolmadi. Afsuski, maktabni tugatish arafasida ko'rish qobiliyatimni butunlay yo'qotdim. Bu ko'rgilikni yengib o'tish, hayotga shunchaki moslashish men uchun juda og'ir bo'ldi.

Eng zo'r shifokorlar muolajasini olsam-da, ko'zimga nur qaytmadi. Yaqinlarim qo'lmdan ushlab, poytaxtdagi tajribali professorlar qabuliga olib borganida ko'nglimda umid uchquni millatlab, tuzalib ketishiga qattiq ishonardim. Keyin esa eshik ortida turib eshitganim — ularning "Foydasi yo'q, qiziqizning ko'zi endi butunlay ko'rmaydi" deganlari ko'ksimga nashtarday sanchilardi. Axir men ham orzulari osmon qadar baland, qalbida musaffo niyatlar mujassam qiz edim. O'zimga yarasha beg'ubor orzularim, katta maqsadlarim va ulkan muhabbatim bor edi. Tengdoshlarim qatori hayotning go'zalligini bahra olish, zavqlanishga haqli edim. Ammo qisimat bu ne'matni mendan erta tortib oldi. Shunday bo'lsa-da, yig'lab-siqtab o'zimga ham, yaqinlarimning ham ko'nglini vayron etmaslikka qaror qildim. Bu dardni peshonamga bitilgan azaliy yozuv deb qabul qilishga intildim. Ko'zi ojiz qiz bo'lib, butun og'irlikimni ota-onam yelkasiga tashlab qo'yishni istamadim. Bilim olishga qattiq kirishdim, ijod olami, tafakkur gulshaniga aql-idrokim va bor iqtidorim bilan singib kirishga intila boshladim.

— Men hech qachon nigronman, ojizman degan fikrni ongimga singdirmaganman. Ota-onamning mehrga to'la nihonini, akam va singlimning samimiy tabassumini o'z ko'zlarim bilan ko'rib, voyaga yetdim, — deydi Shamshoda Hamdamova. — Ustozlarimning nurli chehrasiga boqib, ta'lim oldim. Tengdoshlarim bilan qo'l ushlashib, ko'chalarni changitib, quvnoq bolaligimni o'tkazdim. Keyinchalik ko'zim xiralasha boshladi. Bu sinov meni sindirmadi, aksincha, yanada tobladi. Hayotning har bir ne'matiga shukr qilish, bor imkoniyatdan unumli foydalanishni o'rgandim. Qalbmndagi nurni atrofda qilarga ham ulashishga harakat qilib yashay boshladim. Yillar davomida ota-onam ko'z nurimni tiklash ilinjida bormagan shifo maskani, ko'rsatmagan shifokori qolmadi. Afsuski, maktabni tugatish arafasida ko'rish qobiliyatimni butunlay yo'qotdim. Bu ko'rgilikni yengib o'tish, hayotga shunchaki moslashish men uchun juda og'ir bo'ldi.

Eng zo'r shifokorlar muolajasini olsam-da, ko'zimga nur qaytmadi. Yaqinlarim qo'lmdan ushlab, poytaxtdagi tajribali professorlar qabuliga olib borganida ko'nglimda umid uchquni millatlab, tuzalib ketishiga qattiq ishonardim. Keyin esa eshik ortida turib eshitganim — ularning "Foydasi yo'q, qiziqizning ko'zi endi butunlay ko'rmaydi" deganlari ko'ksimga nashtarday sanchilardi. Axir men ham orzulari osmon qadar baland, qalbida musaffo niyatlar mujassam qiz edim. O'zimga yarasha beg'ubor orzularim, katta maqsadlarim va ulkan muhabbatim bor edi. Tengdoshlarim qatori hayotning go'zalligini bahra olish, zavqlanishga haqli edim. Ammo qisimat bu ne'matni mendan erta tortib oldi. Shunday bo'lsa-da, yig'lab-siqtab o'zimga ham, yaqinlarimning ham ko'nglini vayron etmaslikka qaror qildim. Bu dardni peshonamga bitilgan azaliy yozuv deb qabul qilishga intildim. Ko'zi ojiz qiz bo'lib, butun og'irlikimni ota-onam yelkasiga tashlab qo'yishni istamadim. Bilim olishga qattiq kirishdim, ijod olami, tafakkur gulshaniga aql-idrokim va bor iqtidorim bilan singib kirishga intila boshladim.

— Adabiyotga qiziqishim bolaligimda uyg'ongan. Bu yo'lda birinchi ustozlarim ota-onam va bobom bo'lgan, — deydi Shamshoda. — Talabalik yillarimda universitetning ziyo maskanida topilmagan ayrim manbalarni bobomning shaxsiy kutubxonasida mutolaa qilganman. Kasbi o'qituvchi bo'lgan otam adabiyotdan saboq berardi. Sara asarlarni o'qishimda kutubxonachi bo'lib ishlagan onamning ta'siri ham beqiyos. Yoshim ulg'aygani sari jiddiy mazmundagi adabiyot namunalari meni butunlay o'ziga rom etdi. Beshinchi sinfdan boshlab she'r yozishni mashq qilganman. Dastlab Buxoro davlat universitetining filologiya fakultetida, keyin esa shu universitetning magistratura bosqichida o'zbek tili va adabiyoti yo'nalishida tahsil oldim. Bu orada "Gapirovchi" dasturi asosida kompyuterda ishlash ko'nikmalarini o'zlashtirdim. Bu imkoniyat men uchun yangi bir olam eshigini ochdi va ilmu ijod yo'lida mustaqil izlanishlar olib borishimga yaqin ko'makchi bo'ldi.

"Ilk ustozlarim ota-onam va bobom"

Ha, bu olamda insonga yashash uchun kuchni hech kim tuhfa qilmaydi. Har kim o'z tolegiga bitilgan holatni hayot haqiqati sifatida



to'g'ri anglay olishi kerak. Buning uchun esa iroda mustahkam bo'lishi shart. To'rt mchasi sog' bo'lmay turib dardni unutish, g'am-g'ussani yengib, yana hamma qatori yashashga bel bog'lash har kinning ham qo'lidan kelavermaydi.

Ana shunday og'ir damlarda yaqinlarning beminnat mehri, cheksiz muhabbati kishiga yashash uchun kuch va umid bag'ishlaydi. Shamshoda ham ota-onasi, akasi va singlisining qo'llovi hamda mehri bilan o'zini mustaqil boshqarishni o'rgandi.

Bolaligidan oshno bo'lgan kitoblarga va ijod olamiga mehri yanada ortdi. She'riyatga qiziqishi bolaligidayoq uyg'ongan edi. Bobosining mo'jazgina kutubxonasidagi sanoqsiz kitoblar, oila davrasidagi bahrubaytlar, she'rxonlik kechalari yuragiga ilk ilhom urug'ini sochgandi.

9-sinfda o'qib yurgan kezaridayoq "To'lin oy" nomli ilk kitobini nashr etirdi. O'tiz yoshida o'ndan ziyod she'riy va nasriy kitoblar muallifi bo'ldi. Ayniqsa, "Yosh kitobxon" ko'rik-tanlovining respublika bosqichida ketma-ket ikkinchi o'rinni egallab kelayotgani uning bilim va ijodga chanqoqligining yana bir yorqin dalilidir.

— Adabiyotga qiziqishim bolaligimda uyg'ongan. Bu yo'lda birinchi ustozlarim ota-onam va bobom bo'lgan, — deydi Shamshoda. — Talabalik yillarimda universitetning ziyo maskanida topilmagan ayrim manbalarni bobomning shaxsiy kutubxonasida mutolaa qilganman. Kasbi o'qituvchi bo'lgan otam adabiyotdan saboq berardi. Sara asarlarni o'qishimda kutubxonachi bo'lib ishlagan onamning ta'siri ham beqiyos. Yoshim ulg'aygani sari jiddiy mazmundagi adabiyot namunalari meni butunlay o'ziga rom etdi. Beshinchi sinfdan boshlab she'r yozishni mashq qilganman. Dastlab Buxoro davlat universitetining filologiya fakultetida, keyin esa shu universitetning magistratura bosqichida o'zbek tili va adabiyoti yo'nalishida tahsil oldim. Bu orada "Gapirovchi" dasturi asosida kompyuterda ishlash ko'nikmalarini o'zlashtirdim. Bu imkoniyat men uchun yangi bir olam eshigini ochdi va ilmu ijod yo'lida mustaqil izlanishlar olib borishimga yaqin ko'makchi bo'ldi.



Yutuqlar sarhisobi

"Yosh kitobxon" ko'rik-tanlovi Shamshodaning hayotida alohida sahifa ochdi. 2021-yilda bellashuvning respublika bosqichida faxrli ikkinchi o'rinni egallab, 30 million so'm mukofotini qo'lga kiritdi. 2022-yilda ham ikkinchi o'rinda sazovor bo'lib, 50 million so'm bilan taqdirlandi. Buni qarag'ni, Shamshoda 2025-yilda ham ikkinchi o'rinni egalladi va 75 million so'm egasi bo'ldi. Yosh ijodkorlarning Zomin seminaridagi ishtiroki esa uning ijodida yangi yo'nalish shakllanishiga turki berdi.

Shamshoda 2024-yilda "Duel" adabiy tanlovda bolalar she'riyati yo'nalishi bo'yicha g'olib deb topilib, 50 million so'm pul mukofoti bilan taqdirlandi. 2025-yil Shamshoda uchun xalqaro maydonda ham muvaffaqiyatli bo'ldi. U "International Online Concorso — 3rd Season" hamda Turkiyaning "Turkiya yulduzlari" xalqaro ijodiy tanlovlarda bolalar adabiyotiga oid nasriy asarlari bilan ishtirok etib, har ikkida ham birinchi o'rinni qo'lga kiritdi. Shuningdek, o'tgan yili Rossiya ilm-fan tashkiloti hamkorligida tashkil etilgan xalqaro "Intellectual bilimdon" olimpiadasida jahon adabiyoti fanidan birinchi o'rinni egalladi.

Bugun Shamshoda Buxoro shahridagi 24-ko'zi o'z bolalar maxsus maktab-internatida faoliyat yuritib, o'zi tashkil etgan yosh ijodkorlar to'gariga iqtidorli o'quvchilarni she'riyat sir-sinoatlarini bilan tanishtirmoqda. Iqtidorli qizning ijodi va izlanishlaridagi yutuqlarini birma-bir sarhisob qilar ekanimiz, mamlakatimizda xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash bo'yicha davlat siyosati izchil va samarali yo'lga qo'yilganiga yana bir bor amin bo'lamiz.

"Shunday mehnatkash qizim borligidan faxrlanam"

— "Yosh kitobxon" tanloviga tayyorgarlik jarayonida Shamshoda atigi 4 soat uxlab, yigirma soat mutolaa qildi, — deydi onasi Nazmiya Razzoqova. — O'qilishi og'ir kitoblarni ham matonat bilan o'zlashtirardi. Ba'zan qizimning qattiq charchaganini ko'rganman. Lekin uning sabri va irodasi bunga yo'l qo'yadi. Ona sifatida shunday mehnatkash, qanoatli qizim bilan faxrlanam.

Shamshodaning "Ko'ngil gulshani", "Onam ko'zlarida boshlanar bahor", "Toshko'yakli toshbaqa", "Quyosh parchasi", "Tilsimli shaxmat", "Musaffoning tilaklar raketasi" kabi kitoblari allaqachon o'quvchilar mehri sa'ozov bo'lgan.

"My Miracle" va "Qasoskor sichqoncha" asarlari esa AQSHda ingliz tilida nashr etildi. 2024-yilda chop etilgan "Fil bola va pingvin qiz hangomalar" kitobi maxsus davlat granti asosida nashr qilindi. Asarning maxsus audio varianti tayyorlandi. Shuningdek, Brayl yozuvida ham chop etildi. Ayni paytda Shamshoda Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetining tayanch doktoranti.

Zamondoshlarimiz orasida Shamshoda singari matonatli xotin-qizlar talaygina. Ular har bir ishdan hikmat topib yashashga intiladi. Garchi hayot sinovlari sabab imkoniyati cheklangan bo'lsa-da, shukr qilib, yashash uchun o'zida kuch va maqsad topadi.

Gulichehra DURDIYEVA, "Yangi O'zbekiston" muxbiri

"Yangi O'zbekiston" va "Правда Востока" gazetalarini tahririyati DM

Bosh muharrir:

Salim DONIYOROV

MUASSIS: O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqzir qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi. Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar. Gazeta tahririyat kompyuter markazida sahilalandi. Gazetaning poligrafik jihatdan sifatli chop etilishiga "SHARQ" NMAK mas'ul. Bosmaxona telefoni: (71) 233-11-07.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 1047-raqam bilan ro'yxatga olingan. Nashr indeksi — 236. Buyurtma G-346. 31346 nusxada bosildi. Hajmi — 3 taqob. Ofset usulida bosilgan. Qog'oz bichimi A2. Bahosi kelishilgan narxda. "SHARQ" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasida chop etildi.

Navbatchi muharrir: Bekqul Egamqulov Musahhih: Malohat Mingboyeva Dizayner: Zafar Ro'ziyev

Manzillimiz: 100060, Toshkent shahri, Shahrisabz ko'chasi, 85-uy